



SCIENCE SHINE ILM NURI

INTERNATIONAL | XALQARO | МЕЖДУНАРОДНЫЙ
SCIENTIFIC JOURNAL | ILMIY JURNAL | НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

ABSTRACT

This international scientific journal is created for new scientific research.

Articles are accepted in the following areas:

- specific and technical directions
- social directions
- directions of philology
- pedagogic directions
- directions of discovery and invention
- natural science majors


TIME AND WORLD



2023

OCTOBER 31

ISSUE X



<http://science-shine.uz>



INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

SCIENCE SHINE

Issue X.

30. 10. 2023





International
scientific journal
“SCIENCE SHINE”

Bosh muharrir:
D. Z. Olimjonov

Jurnal bir oyda bir marta
chop etiladi.

Jurnal

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti
Administratsiyasi
huzuridagi

Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2023-
yil 16-fevralda

№063974 sonli
guvohnoma bilan davlat
ro‘yxatidan o‘tkazilgan

Maqola ko‘chirilib
bosilganda, manba
ko‘rsatilishi shart

Aloqa uchun:

Telefon: +99899 011 6303

E pochta:

scienceshine@mail.ru

Veb sayt:

<http://science-shine.uz/>

Tahrir kengashi:

Xurshid Jumanazarov Sirojiddinovich

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Mamatov Obidxon Vaqqosovich

Namangan davlat universiteti “Milliy g‘oya, ma‘naviyat va huquq asoslari” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari nomzodi

Masharipova Gularam Kamilovna

*Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti*

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich

Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Jo‘rayeva Sobira Eshqurbonovna

O‘zMU jurnalistika fakulteti, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasini katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Baymenova Kamshat Saparbayevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Bazarov Otabek Odilovich

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD

Azizov Olimjon Toxirovich

Toshkent kimyo texnologiya instituti GSKMT kafedrasini dotsenti

Abdullayev Ravshan Inomjon o‘g‘li

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti ilmiy xodimi

G‘ulomova Nargiza Sa‘dullayevna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi katta o‘qituvchisi

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi

Namangan davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasini o‘qituvchisi

Haydarova Umida Xojiakbar qizi

Farg‘ona davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasini o‘qituvchisi



BASIC PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF READING AND LISTENING

Makhbuba Mamajonova

Associate professor, Fergana State University

Annotation: In this article the issues of teaching and reading skills are researched and analyzed psychologically. This article discusses the basic psychological characteristics of reading and listening, including attention, perception, memory, and comprehension. It also explores the role of instructional methods and strategies in facilitating the development of these skills. The article provides recommendations for enhancing reading and listening skills, such as increasing exposure to the target language and using language learning apps and tools. Overall, the article emphasizes the importance of these skills in acquiring information and knowledge.

Keywords: reading skills, listening skills, psychological aspect, teaching English.

Аннотация: В данной статье исследуются и психологически анализируются вопросы обучения и навыков чтения. В этой статье рассматриваются основные психологические характеристики чтения и слушания, включая внимание, восприятие, память и понимание. В нем также исследуется роль методов и стратегий обучения в содействии развитию этих навыков. В статье представлены рекомендации по улучшению навыков чтения и аудирования, например, более глубокое знакомство с целевым языком и использование приложений и инструментов для изучения языка. В целом в статье подчеркивается важность этих навыков в получении информации и знаний.

Ключевые слова: навыки чтения, навыки аудирования, психологический аспект, обучение английскому языку.

Introduction

Reading and listening are two essential skills that individuals use to acquire information and knowledge. These skills require various psychological processes, including attention, perception, memory, and comprehension. This article explores the basic psychological characteristics of reading and listening and their impact on



language acquisition. Additionally, the article discusses the role of instructional methods and strategies in facilitating the development of these skills.

Attention

Attention is a crucial psychological process that plays a significant role in reading and listening. Attention refers to the ability to focus on specific information while ignoring irrelevant information. In reading, attention allows individuals to focus on the text and extract relevant information. In listening, attention enables individuals to focus on the speaker's words and comprehend their meaning. However, attention is a limited resource, and individuals may experience difficulties in maintaining focus for extended periods.

Perception

Perception is another essential psychological process that influences reading and listening. Perception refers to the process of interpreting sensory information. In reading, perception involves interpreting the visual information presented in the text. In listening, perception involves interpreting the auditory information presented in the speech. However, individuals may experience difficulties in perception due to factors such as background noise, accents, and unfamiliar vocabulary.

Memory

Memory is a critical psychological process that impacts reading and listening. Memory refers to the ability to retain and recall information over time. In reading, memory allows individuals to store and retrieve information from the text. In listening, memory enables individuals to retain and recall information from the speech. However, individuals may experience difficulties in memory due to factors such as distractions, stress, and cognitive overload.

Comprehension

Comprehension is the ultimate goal of reading and listening. Comprehension refers to the ability to understand and make sense of the information presented in the text or speech. Comprehension involves various psychological processes such as attention, perception, memory, and inference. However, individuals may experience difficulties in comprehension due to factors such as unfamiliar vocabulary, complex sentence structures, and cultural differences.

Instructional Methods and Strategies for Reading and Listening

Instructional methods and strategies play a crucial role in facilitating the development of reading and listening skills. Teachers can use various strategies such as pre-reading/listening activities, explicit instruction, and scaffolding to enhance learners' reading and listening skills. Pre-reading/listening activities involve



activating learners' prior knowledge and preparing them for the text or speech. Explicit instruction involves explicitly teaching learners the reading and listening strategies and skills. Scaffolding involves providing learners with support and guidance as they develop their reading and listening skills.

Recommendations for Enhancing Reading and Listening Skills

To enhance their reading and listening skills, learners can take various steps such as increasing their exposure to the target language, practicing regularly, and using language learning apps and tools. Additionally, learners can seek feedback from teachers or native speakers to identify areas for improvement. Learners can also use various strategies such as active reading/listening, note-taking, and summarizing to enhance their reading and listening skills.

Conclusion

Reading and listening are essential skills that individuals use to acquire information and knowledge. These skills require various psychological processes such as attention, perception, memory, and comprehension. However, learners may encounter difficulties in developing these skills due to various factors such as distractions, stress, and cognitive overload. Instructional methods and strategies such as pre-reading/listening activities, explicit instruction, and scaffolding can facilitate the development of these skills. By taking steps such as increasing exposure to the target language, practicing regularly, and using language learning apps and tools, learners can enhance their reading and listening skills and overcome the challenges they may face.

References:

1. Hoshimova, N. A. (2020). Ingliz va o'zbek tillarining funktsional uslublari. *Молодой ученый*, (19), 584-585.
2. Toirova, N. I. (2019). The significance of the symbols of Mirror and Portrait in teaching Symbolism. *sign*, 1, 22.
3. Mamajanova, M. (2021). MODEL CONCEPT MODELING IN LINGUISTICS TYPES OF LINGUISTIC MODELS. *Экономика и социум*, (1-1), 160-163.
4. Holbekova, M., Mamajanova, M., & Holbekov, S. (2021). COMMUNICATIVE APPROACH TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Экономика и социум*, (3-1), 83-85.



5. Mirzayevna, M. (2021). Innovative technologies in foreign language teaching methodology. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(12), 465-467.
6. Kasimova, G. (2022). IMPORTANCE OF ICE BREAKING ACTIVITIES IN TEACHING ENGLISH. *Science and innovation*, 1(B7), 117-120.
7. Makhmudovna, K. G. (2022). Creative Strategies to Improve Vocabulary Teaching. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 259-261.
8. Kurbanovna E. N. Application of multimedia and interactive materials in foreign language teaching in non-philological higher educational institutions //Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 2 (147). – С. 65-67.
9. Alimjanova, M. (2023). UTILIZING TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' COMMUNICATIVE LANGUAGE SKILLS. *Ilm-fan va ta'lim*, 1(5).
10. Akhmedova, M. (2012). Characteristics of bronchial asthma associated with allergic rhinosinusitis in children. *Medical and Health Science Journal*, 11, 39-43.
11. Ibragimjonovna, A. M. (2022). Developing professional communicative competence of medical students in a foreign language. *Eurasian Scientific Herald*, 15, 45-50.
12. Isaqjon, T. (2022). Strategies and techniques for improving EFL learners' reading skills. *Involta Scientific Journal*, 1(11), 94-99.
13. Mohira, A., & Isakjon, T. (2022). METHODOLOGY OF ENGLISH LANGUAGE. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 3, 68-71.
14. Ahundjanova, M. A. (2020). METHODS AND METHODS OF TEACHING RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGE AND LITERATURE. *Экономика и социум*, (11), 46-49.
15. Ahundjanova, M. (2022). THE NEEDS FOR IMPROVING LEARNERS' AUTONOMY IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES—AS A KEY FACTOR TO BOOST LANGUAGE LEARNERS. *Science and innovation*, 1(B6), 390-392.
16. Gafurova, N. I. (2021). Structural-semantic classification of construction terms in English and Uzbek languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 571-575.
17. Mirzaaliyev, I., & Oxunov, A. (2021). EKVIVALENTSIZ LEKSIKANING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 209-212.



18. Oxunov, A. O. O. (2021). INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA UNDOV SO‘ZLAR (INTERJECTION) NING IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 401-406.
19. Abdukhalimova Sarvinozkhon. (2023). HOZIRGI INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ZIDLOV BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAPLARNING SEMANTIK TAHLILI . *PEDAGOGS Jurnal*, 27(1), 153–157.



SOLIQ SIYOSATIDAGI O'ZGARISHLAR (2022-2023-yillar misolida)

Alisher Ostanaqulov Abdurashidovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

e-mail: alisherostanaqulov@gmail.com

Shahlo Esonova Abdimurot qizi

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti, Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti
talabasi

e-mail: esonovashahlo7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada avvalo soliq tushunchasiga alohida urg'u berilib, soliqlarning turlari haqida ham batafsil ma'lumotlar o'rin olgan. Shuning bilan birgalikda soliq siyosatidagi o'zgarishlar va qo'shimchalar haqida ham barcha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'z: Soliq, davlat byudjeti, soliq kodeksi, soliq funksiyalari, soliq qonunchiligi prinsiplari, bekor qilingan imtiyozlar, to'g'ri va egri soliqlar

Annotation: In this article, special emphasis is placed on the concept of tax, and detailed information about the types of taxes is also included. At the same time, all information about changes and additions to the tax policy is given.

Keywords: Tax, state budget, tax code, tax functions, principles of tax legislation, canceled benefits, direct and indirect taxes.

Tarixan soliqlar davlatni saqlab turish uchun zarur bo'lgan majburiy to'lovlar sifatida davlat paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog'liq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining manbaidir. Soliq kategoriyasi esa bu muhim iqtisodiy jarayon bo'lib, uning paydo bo'lishi va amal qilishi, kishilik jamiyatining mavjudligi bilan bog'liq. Shu o'rinda "Soliq" tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak:

Soliq deganda Kodeksda belgilangan, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga yoki maqsadli jamg'armasiga to'lanadigan majburiy beg'araz to'lov tushuniladi.
(*O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 16- modda*)

Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo'nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o'rtasidagi nisbatni ta'minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi. Soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida mustaqillikning dastlabki yillarida



O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida” gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Korxonalar tashkilotlar birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida” gi (1991-yil 15-fevral), O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmaganlarning daromad solig‘i to‘g‘risidagi, “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi (1993-yil 7-may) Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari kabi me‘yoriy hujjatlardan iborat bo‘lgan. 1997 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi va O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni yuqoridagi hujjatlarning ayrimlarini o‘z kuchini yo‘qotishiga olib kelgan bo‘lsa, ayrimlarining huquqiy bazasini kengayishiga, kuchayishiga xizmat qilib kelmoqda.

Soliq kategoriyasi davlatning iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqelik sifatida yuzaga chiqqan. Soliq tushunchasi tor ma‘noda davlat ixtiyoriga soliq to‘lovchilardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi. Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqadi. Soliq mustaqil kategoriya sifatida o‘zi bajaradigan funksiyalarga ega bo‘lib, bu funksiyalar soliq kategoriyasining amaldagi harakatini ifodalaydi. Funksiya deganda, odatda, kategoriyaning ko‘p qaytariladigan, takrorlanadigan doimiy harakatini tushunish lozim. Soliqlarning quyidagi asosiy funksiyalarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir: fiskal funksiyasi, tartibga solish funksiyasi, rag‘batlantirish funksiyasi, nazorat funksiyasi, soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta‘minlash funksiyasi. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi soliq to‘lovchilar hisoblanadigan sub‘yektlar tomonidan foyda solig‘i hisobining tartibini belgilab beradi. Soliq va boshqa majburiy to‘lovlarning elementlari “Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tizmi” ning asosiy bo‘g‘ini bo‘lib hisoblanadi. Bular soliq solishdagi asosiy tushunchalardir. Ushbu tushunchalar davlat byudjeti va soliq to‘lovchilar ertasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarda yuzaga keladi. Soliq kodeksining 24-moddasida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning elementlari aks ettirilgan. Bularga quyidagilar kiradi:

Shu bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq Qonunchiligining prinsiplar ham mavjud bo‘lib ular bilan tanishing:

Soliq solishning majburiyligi prinsipi- har bir shaxs Soliq Kodeksida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari to‘lashi shart.



Soliq solishning aniqligi prinsipi- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar aniq bo'lishi kerak. Soliq to'lovi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, qachon qancha miqdorda hamda qay tartibda to'lashi kerakligini aniq bilishi kerak.

Soliq solishning adolatlighi prinsipi-soliq solish umumiydir. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi kerak.

Soliq tizimining yagonaligi prinsipi- soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagonadir.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi prinsipi- soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi shart.

Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo'nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o'rtasidagi nisbatni ta'minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi. Soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida" gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar tashkilotlar birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida" gi (1991-yil 15-fevral), O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmaganlarning daromad solig'i to'g'risidagi, "Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida" gi (1993-yil 7-may) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari kabi me'yoriy hujjatlardan iborat bo'lgan. 1997-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida" gi Qonuni yuqoridagi hujjatlarning ayrimlarini o'z kuchini yo'qotishiga olib kelgan bo'lsa, ayrimlarining huquqiy bazasini kengayishiga, kuchayishiga xizmat qilib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi siyosati haqida gap borar ekan, bu borada juda ham ko'plab o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilib borilmoqda. Va shu bilan birgalikda bo'layotgan o'zgarishlar haqida ma'lumotlarni "Soliq kodeksi" dan tashqari quyidagi qonun va hujjatlardan ham batafsil ma'lumotlar olishingiz mumkin.

- O'zbekiston Respublikasi Soliq tizimining qonun hujjatlari quyidagilar:
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (51 va 123 moddalar);



- O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida” gi Qonuni (16 moddadan iborat);
- O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (483 modda);
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qarorlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining soliqqa oid qarorlari;
- Boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlari.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot orqali, mantiqiy va taqqoslanma tahlil, guruhlash usullari hamda mavzuga oid mahalliy olimlarning fikr mulohazalari va internet saytlaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Soliq siyosati haqida so‘z yuritir ekanmiz, biz uning nihoyatda ko‘p qirrali va murakkab kategoriya ekanligini alohida ta‘kidlashimiz kerak. Soliq siyosatining asosiy yo‘nalishi moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy tizim sohalari o‘rtasida qayta taqsimlash va bosh yo‘nalishga ega bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish maqsadida davlat ixtiyoridagi moliya resurslarini markazlashtirishdan iboratdir. Soliq tizimining asosi bo‘lgan soliqlar o‘ziga xos xususiyatlariga, bir qator belgilariga ko‘ra guruhlanadi. Soliqlarning guruhlanishi ularning ob‘yektiga, xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar moliyaviy faoliyatiga ta‘sir etishiga, undirilish usullari, paydo bo‘lishiga, byudjetga yo‘naltirilishiga va boshqa belgilariga ko‘ra ularning tasniflanishidir. Soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga qarab yoki boshqacha qilib aytganda undirib olish manbasiga qarab ikki guruhga to‘g‘ri va egri, ya‘ni bevosita va bilvosita soliqlar guruhlariga bo‘linadi. Keling shu o‘rinda soliq turlari bilan tanishamiz, bizning yurtimizda qanday soliq turlari mavjud va qaysilar bekor bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi “Soliq siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini tayyorladi. Soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan soliq stavkalari foyda solig‘i (15 foiz, alohida toifalar uchun-20 foiz), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (12 foiz), yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (1,5 foiz), qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun yer solig‘i (0,95 foiz), ijtimoiy soliq (byudjet tashkilotlari- 25 foiz, qolganlar-12 foiz) bo‘yicha stavkalar saqlanib qolinmoqda. Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) Soliq to‘lovchilarning toifasi, soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi, shuningdek soliq hisobotini taqdim etish muddatlari



saqlab qolinmoqda. 2023 yilning 1-yanvaridan boshlab QQS stavkasi 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirilmoqda. Qoplanadigan (qaytariladigan) qo‘shilgan qiymat solig‘i summasining asosligi yuzasidan kameral soliq tekshiruvini o‘tkazish muddatlari 60 kundan 30 kungacha qisqartirilmoqda.

Bekor qilingan imtiyozlar . 2023-yilning 1-apreldan boshlab quyidagilar bo‘yicha berilgan imtiyozlar bekor qilinmoqda:

- Byudjet mablag‘lari hisobidan har yillik mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlari doirasida ko‘rsatiladigan geologiya xizmatlari bo‘yicha aylanma;

- Pochta markalari, markali otkritkalar, konvertlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma;

-Byudjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan ilmiy tadqiqot va innovatsion ishlari realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma.

Xulosa va takliflar. 2023-yilning 1-apreldan boshlab ustav fondida (ustav kapitalida) chet el investitsiyalari ulushi kamida 33 foiz bo‘lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun bojxona hududiga olib kiriladigan mol-mulk bo‘yicha bojxona bojidan mavjud imtiyozlar bekor qilinmoqda. Agar 2023-yilning 1-yanvariga qadar xorijiy investor hamda investitsiyalar va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish sohasida vakolatli davlat organi o‘rtasida tuzilgan investitsiya shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa imtiyozlar bekor qilinmaydi. Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning saqlanishi uchun soliq qarzi undiruvini soliq qarzi mavjud soliq to‘lovchining mol-mulkiga qaratish muddati 30 kundan 60 kungacha uzaytirilmoqda. Jami daromadi 10 mlrd so‘mgacha bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lovchilarga soliq qarzini 6 oy muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash haqida xabardor qilish huquqi berilmoqda (bundan ustav fondida (ustav kapitalida) 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, yer qa‘ridan foydalanuvchilar va aksiz solig‘i to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchilar mustasno). Bunda foizlarni to‘lamasdan bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati kalendar yil davomida bir marta taqdim etiladi. O‘zbekiston hududiga olib kiriladigan ayrim tovarlar bo‘yicha bojxona bojining nol darajali stavkasini qo‘llashning amal qilish muddati 2024-yilning 1-yanvariga qadar uzaytirilmoqda. Budjet tashkilotlariga tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar bo‘yicha taqdim etilgan soliq imtiyozlari 2024-yilning 1-yanvariga qadar uzaytirilmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Toshkent. Adolat nashriyoti 2020 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risidag” gi qonuni- T. 1997 yil 29 avgust, 1-2 betlar
3. Alimardonov M.I. Yusupov O.A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish: Darslik. – T.: TDIU, 2019. - 320 b.
4. Vahobov.A.V, Jo‘rayev.A.S. Soliq va soliqqa tortish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2018.-408 b.
5. E.Gadoev, N.Kuzieva. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. TDIU, Iqtisodiyot. 2019 y. 430 b.
6. Xudoyqulov S. Soliq nazariyasi. Darslik. T: Iqtisodiyot. 2019.-320 b.
7. Jo‘rayev A.S., Safarov G‘.A., Meyliyev O.R. Soliq nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-358 b.
8. A.Jo‘rayev va b. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-350 b.
9. A.Jo‘rayev va b. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-350 b.
10. Vahobov.A.V, Jo‘rayev.A.S. Soliq va soliqqa tortish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2018.-408 b.
11. Niyazmetov I.M. Soliq tizimi. T: Akademiya. 2018.-162 b.
12. www.soliq.uz
13. <https://www.lex.uz/uz/docs/5801127>
14. 2023-yil uchun soliq siyosati va stavkalari. Nimalar o‘zgardi? — Daryo Yangiliklari



ПРИМЕНЕНИЕ НА УРОКАХ БИОЛОГИИ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВИДЕ РАБОЧИХ ТЕТРАДЕЙ

Бурцева Александра Васильевна

Чирчикский Государственный Педагогический Институт

vlad.bond.1999@bk.ru

Аннотация: В данной статье говорится о роли естественных наук и конкретно биологии в системе общего образования. А также инновационные методы, такие как рабочие тетради. И роль учителя в образовании.

Ключевые слова: Биология, учитель, STEAM, рабочая тетрадь.

Annotation: This article talks about the role of natural sciences and specifically biology in the general education system. As well as innovative techniques such as workbooks. And the role of the teacher in education.

Keywords: Biology, teacher, STEAM, workbook.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy fanlarning, xususan, biologiyaning umumiy ta'lim tizimidagi o'rni haqida so'z boradi. Shuningdek, ish kitoblari kabi innovatsion usullar. Va o'qituvchining ta'limdagi roli.

Kalit so'zlar: Biologiya, o'qituvchi, STEAM, ish kitobi.

*Биология не похожа на физику. Чем больше мы узнаем,
тем очевиднее становится, что одного объяснения,
до которого нужно докопаться, не будет.*

Стив Джонс.

Биология-это та наука, которая связывает все науки во едино, связывает нас. В образовательном процессе профильных не биологических классов методология учебная биологии претерпевает изменения. В классической триаде целеполагания учителя на первое место выходят развивающие и социализирующие цели. А само предметное содержание, уступив целевую функцию способам действий, получило роль - поддержания процессов саморазвития и самопознания. Сейчас становится популярным и в нашей стране направление индивидуального образования, при котором на уроках преподаватель должен уделять внимание каждому ученику и понимать как можно заинтересовать его. Также такое образование называют инклюзивным



и считают более эффективным. Но в общеобразовательном образовании в уроке 45 минут учителю сложно уделить внимание каждому ученику т.к.:

1. В классах большое количество учеников.
2. Не подготовленность кадров к новым методам образования.
3. Малое количество времени (45 минут) для того чтобы провести урок по всем нормам.
4. Не оснащенность учебных заведений.

Преподавание тяжелая работа, когда в течение 45 мин от вас требуется концентрация воли и внимания. Но именно в это время учитель в полной мере реализует себя. Урок дает ощущение полезности профессиональной деятельности, и учитель проявляет свое стремление к творчеству и самостоятельности. Педагог академик М.Н.Скаткин отмечал, что урок – это творимое учителем “педагогическое произведение”. В этот момент преподавателю на помощь приходят различные методики преподавания и инновационные технологии.

Традиционное понятие «урок» по-прежнему остаётся главной формой организации учебного процесса. Более 60 % учителей, по-прежнему, предпочитают давать уроки в традиционной форме. Современный урок стал гибким, разнообразным по целям и задачам, вариативным по формам и методам преподавания, насыщенным по использованию новейших технических средств. В этом сейчас нам помогает система STEAM пришедшая к нам с Европы. *STEM-подход — Сейчас является одним из прорывных инструментов трансформации образования.* Расшифровывается данная аббревиатура, S - science, T - technology, E - engineering, A - art и M - mathematics. В переводе с английского это будет звучать так: естественные науки, технология, инженерное искусство, творчество, математика. Заметим, что данные дисциплины становятся самыми востребованными в современном мире. STEAM-образование основано на применении междисциплинарного и прикладного подхода, а также на интеграции всех пяти дисциплин в единую схему обучения. В США было принято и применяется с 2001 года, а в России с 2012. Теперь эта методика пришла в нашу страну и уже применяется в частных и президентских школах основываясь на опыте других стран. Но когда мы что-то вводим в нашу систему образования важно понимать менталитет нашего народа и его характер. То есть в системе образования происходят изменения и реформы. Однако многие реформы и системы



взяты из других стран в первоначальном виде. Одной из таких систем является STEAM, который предлагает нам научный, всесторонний подход к урокам. Ее внедрение является важной частью реформ, но важно не забывать о самобытности нашего народа. Мне нравится STEAM подход с помощью которого мы можем всесторонне развивать ребенка.

Учителя придумывают различные методы обучения основываясь на прошлом опыте и опыте других стран. Так в STEAM можно включить и рабочие тетради которые уже долгое время используются в общеобразовательных предметах. Рабочая тетрадь (workbook) – это набор стандартных форм (бланков) для выполнения предусмотренных учебной программой заданий по конкретной дисциплине. Общеизвестными разновидностями рабочих тетрадей являются обыкновенные школьные прописи и контурные карты.

Так большое внимание и прогресс совершен в образовании английского языка благодаря в том числе и работе с рабочими тетрадями. Рабочие тетради являются эффективными т.к. путем краткого изложения информации и повторения путем логических заданий ребенок легче запоминает сложный материал. Но что, не сказать о биологии, по основному естественному предмету есть только лабораторные тетради в России и тетради-таблицы в США. Поэтому мы предлагаем опираясь как на опыт наших коллег и на наш менталитет сделать продукт выводящий наше образование на новый уровень. Давайте делать свое более эффективное образование.

Литература:

1. Сто приемов для учебного успеха ученика на уроках биологии. г. Москва.
2. Современный урок. Традиции и Инновации. Печатается по решению методического совета РМК с. Троицкое.
3. А. БАРОН, М. МАТЛИН, Волгоградский государственный технический университет Рабочие тетради.
4. <http://rptica.ru/Stati/Chto-takoe-STEAM-obrazovanie/> ЧТО ТАКОЕ STEAM-ОБРАЗОВАНИЕ?



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA MADANIYATI FANINING O'QITISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Ma'rifat Umurova Yoshiyevna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'limning musiqa madaniyati fanining o'qitishi, davlat ta'lim standartlari mazmuni, musiqa madaniyati o'qituvchisining umumiy tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yilgan talablar, musiqa madaniyati fanining o'qitish shakllari, vositalari, usullari, uning sifati, baholash tartibi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa, madaniyat, musiqa o'qitish, o'zbek bastakorlari va kompozitorlari qo'shiqlari, yakka ijro, jamoa bo'lib kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi, musiqa asboblari, ma'naviy-axloq, fazilat, milliy tarbiya.

Annotation: This article describes the teaching of music culture in general secondary education, the content of state educational standards, requirements for the general training and level of music culture teacher, forms, tools, methods of music culture teaching, its quality, evaluation procedure.

Keywords: Music, culture, music education, songs of Uzbek composers and composers, solo performance, group singing, listening to music, musical literacy, musical instruments, morals, virtue, national education.

Mustaqil Respublikamizda yosh-avlodni tarbiyalash va ularni O'zbekistonning kelajagi uchun xizmat qiladigan insonlar qilib shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Yosh avlodni kelajagi ko'p jixatdan o'qituvchiga uning salohiyati kasbiy tayyorgarligiga, o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash ishiga bog'liq. Har tomonlama kamol topgan, hozirgi davr talabiga javob bera oladigan, o'zida ma'naviy boylikni, ahloqiy poklikni, vijdon, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik kabi tuyg'ulami mujassamlashtirgan faol shaxsni shakllantirishda musiqa madaniyati darslarining ahamiyati katta. Musiqa madaniyat darslari o'quvchilarni ma'naviy va axloqiy madaniyatini shakllantiradi. Milliy g'urur vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirib, badiiy did va fikr doirasini kengaytirib, ularni barkamol inson bo'lib yetishishida takrorlanmas manbaa bo'lib xizmat qiladi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida keng qamrovli va juda muhim iqtisodiy hamda siyosiy o'zgarishlar yuz berdi.



Jumladan, umumiy oʻrta taʼlimning musiqa madaniyati fanining oʻqitishi, umumiy tayyorgarligiga, saviyasiga, davlat taʼlim standartlari mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifati, baxolash tartibi belgilab berilgan. Musiqa madaniyati mazmunining oʻzagi hisoblangan davlat taʼlim standartlarida mamlakat hududida faoliyat koʻrsatayotgan sanʼat muassasalarida (davlat va nodavlat) taʼlimning barqaror darajasini taʼminlash sharti amalga oshiriladi. Musiqa madaniyati fani dasturida davlat taʼlim standarti oʻz mohiyatiga koʻra oʻquv dasturlari, darsliklar, qoʻllanmalar, nizomlar va boshqa meʼyoriy hujjatlarni yaratish uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

Musiqa madaniyati fani oʻquvchilarning maʼnaviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni oʻstirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa madaniyati fani umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻqitiladigan barcha oʻquv fanlari, jumladan, adabiyot, tasviriy sanʼat, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bogʻlanadi.

Barcha oʻquv fanlari qatori musiqa madaniyati faning joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan toʻlaqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qoʻshiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda oʻz aksini topdi. Musiqa madaniyati fanining imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalash, ularning barkamol boʻlib etishishlarida oʻziga xos va takrorlanmas manba boʻlib xizmat qiladi.

Musiqa madaniyati fanining vazifalari yangi taʼlim mazmuni oʻquvchilarning musiqiy bilim, koʻnikma va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni taʼminlaydi. Shu bois, musiqa madaniyati taʼlimining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Bunda oʻquvchilar musiqa sanʼatini butun nafosati bilan oʻrganishlari, ommaviy musiqa faoliyatlari, musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa boʻlib qoʻshiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirishni talab etadi.

Shuningdek, oʻquvchilar musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa sanʼatiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa sanʼatiga qiziquvchi oʻquvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqa taʼlim-tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Shu



bilan bir qatorda jahon xalqlarining nufuzli durdona asarlari bilan tanishtiriladi. O'quvchilarning estetik tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani o'qitish jarayonida o'quvchilar musiqa savodi, musiqiy asarlar ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, ashula, xor, ansambl, orkestr bastakorlar va kompozitorlar ijodini, o'zbek xalq cholg'u asboblarini bilish, mashhur o'zbek xalq sozanda va xonandalar ijodiy faoliyati, musiqiy atama va iboralari, musiqa janrlari, musiqada zamonaviylik va zamonaviy musiqa, milliy estrada musiqasi, uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Mazkur bilimlar dars jarayonida musiqa tinglash, jamoa bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa ijodkorligi o'quv faoliyatlarida nazariy va amaliy mashg'ulotlar vositasida amalga oshiriladi. O'quv faoliyatini tahlil etar ekanmiz, musiqa tinglash ta'lim mazmunining asosini tashkil etadi. O'quvchilar kuylash, tinglash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan bir qatorda cholg'uchilik, musiqali harakatlar, ijodkorlik faoliyatlari bilan har tomonlama o'rganish va o'zlashtirish, musiqiy tavsiflarni ifodalash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqiy qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovozi ijrosini boshqarishni va ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'rnavozlik qilishga intiladi. O'zbek xalq qo'shiqlari, o'zbek bastakorlari va kompozitorlari qo'shiqlari, jahon va qardosh xalqlar kompozitorlari qo'shiqlari, mahalliy musiqa uslublariga oid folklor qo'shiqlaridan namunalar kuylaydilar.

Musiqa madaniyati fani barcha bilimlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsdan qaysi faoliyat mashg'uloti (tinglash, ijro etish, musiqiy harakatlar) bo'lmasin, berilgan mavzudagi asar o'rganiladi va uning xususiyatlari (janri, shakli, tuzilishi, ijrochiligi) haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois, musiqa savodi faqatgina nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'lmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim, tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, mumtoz musiqa, nota savodi) tashkil etadi.

Musiqa savodida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur'at), intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifoda tili, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minorlari haqida tushuncha beriladi.

Musiqa tinglash yakkanavozlik va jo'rnavozlikni ajrata bilish, ansambl va orkestr ijrosini farqlay bilish, sozlar va sozlar tembrini ajrata olish, musiqiy did va



idrokni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash ta'lim mazmunini tashkil etadi.

Musiqa ijodkorligi qo'shiq ijrochiligi, sozlar ijrochiligi, raqs ijrochiligi, yakka va jamoa bo'lib ijro etish, xalq va kasbiy musiqa, bolalar kuy va qo'shiqlari, ommaviy xalq kuy qo'shiqlari, maqom, dostonlar, zamonaviy musiqa ijodi, xalq sozanda va xonandalari ijodini bilishni talab etadi. Oddiy musiqa shakllari: bir qismli, ikki qismli va uch qismli musiqa shakllariga ega bo'lib, musiqiy atamalar haqida tushunchaga ega bo'lishlari nazarda tutiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanining o'qitishda musiqiy janrlar: ashula, raqs, vals, marsh kabi janrlarini farqlay olishi, asosiy musiqiy faoliyat turlari: bastakor, kompozitor, ijrochi sozandalar ijodi bilan tanishish, ijrochilar: ansambl, orkestr, xalq va professional sozandalar ijrochiligi haqida tushunchaga ega bo'lishlari talab etadi. Musiqa madaniyati umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitar ekanmiz, xor ijrochiligi, partiya ovozlari: soprano, alt, tenor, bas ovozlari farqlay olishni bilishlari o'rgatiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanining o'qitish jarayonlarini pedagogik muammo sifatida qarar ekanmiz, musiqa san'atining boshqa san'at turlari bilan bog'liqligi adabiyot, kino, teatr kabi san'atlar bilan bog'liqligi anglamoq lozim bo'ladi. Atoqli o'zbek bastakorlari va kompozitorlari, qardosh xalqlar kompozitorlari, atoqli o'zbek xalq sozanda va xonandalari, mashhur ansambllari, orkestrlari va xor jamoalari haqida tushunchaga ega bo'lishda ushbu san'at turlarini bilishning ahamiyatli ekanligini anglamoq lozim bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanining o'qitish o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, hudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi hamda eng asosiysi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi.

Manbalar tahlili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanining o'qitish jarayonida o'quvchi-yoshlar Buyuk Sharq allomalari Muhammad Al-Xorazimiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Paxlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug' bobokolonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun-qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni o'rganishadi.

Musiqa san'ati kishi faoliyatining muayyan bir turi bo'lib, uning vazifasi jamiyatga estetik xizmat ko'rsatishdir. Shu ma'noda uning o'rnini hech bir narsa bosa



olmaydi. Musiqa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida faol sur'atda o'rin oladi. Shunday qilib, voqelikka bo'lgan estetik munosabat bastakorlar tomonidan yaratilgan musiqa asarlarida ham, mehnatga, maishiy hayotga va odamlar munosabatiga olib kiriladigan badiiy asoslarda ham ifodalanadi. Har bir san'at turi singari musiqa madaniyati ham juda qadim zamonlarda, odamlar g'orlarda yashab, tosh qurollaridan foydalanib, hayvon terilarini yopinib yurgan o'tmish davrlarida paydo bo'lgan. U odamlarning ma'naviy dunyosi cheklangan, tili kambag'al, atrofdagi voqea - hodisalar haqidagi tasavvurlari juda noaniq edi. Lekin shunga qaramay musiqiy asarlarni, garchi u asarlar "yovvoyi" holatda bo'lsa- da, ana shu qadimgi odamlar yaratgan. San'atning deyarli hamma turlari minglab yillar ilgari vujudga kelgan. San'at qandaydir birgina yerdagina emas, balki bir yo'l bir necha qit'alarda, turli kengliklar, iqlim sharoitlarida paydo bo'ldi.

Qoyalardagi juda qadimgi zamon tasvirlari Afrikada ham, Ispaniyada ham, Onega ko'li qirg'oqlarida ham, Xitoyda ham topildi. Qadimgi Yunonistonda "musiqa bilan davolash ilmi" keng taraqqiy etgan. Masalan: matematik va faylasuf Pifagor musiqani kishi ruhiga va tanasiga har tomonlama davo bo'ladigan vosita sifatida tavsiya etgan. Aytishlaricha, Iskanday Zulqarnayn ham ko'p ishlarni musiqa sadolari ostida bajargan. O'zbek xalqi yaratgan musiqiy merosning ildizlari juda uzoq asrlarga borib taqaladi. Ajdodlarimizning maftunkor tasviriy san'ati tufayli bizgacha yetib kelgan yodgorliklar o'zbek cholg'u musiqasi qadim zamonlardan boshlanganligini ko'rsatadi. Ko'xna Afrosiyobda olib borilgan qazilmalarda qo'lida surnay ushlagan haykalcha topilgan. Olimlar bu haykalchani eramizdan, ya'ni miloddan avval III-I asarlarda yaratilgan, deb taxmin qilmoqdalar. Ayritosh nomi bilan fanda mashhur bo'lgan nodir yodgorliklar, Sulton Uvays tog'ining janubiy tizmalari boshlanadigan tekislikdagi qadimiy To'proq qal'adan arfa chaluvchi ayol tasviri tushirilgan topilmalar olimlar fikricha III-IV asrlarga mansub ekan. VIII-XII asarlarda Sharqshunoslik tarixida "Sharq yoki musulmon Renessansi" davri deb nom olgan davr Sharqda O'rta asrlardagi barcha taraqqiyotlaming eng yuksak cho'qqisi hisoblanadi. Abu Yusuf Yoqub ibn Is'hoq al-Kindiy, Abu Nasr ibn Muhammad al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar shu davrning ajoyib vakillari bo'lganlar. Al-Forobiyning musiqaga bag'ishlangan "Kitob ul-musiqiy al-Kabr" ("Musiqa haqida katta kitob") asarida yozilishicha musiqa haqidagi fan amaliy va nazariy sohalardan iborat. Birinchisi musiqiy asboblarning yordamida musiqiy asarlarni ijro etishga oid. Ikkinchisi esa ohanglarning kelib chiqishi va musiqiy asarlarni yaratilish qonunlarini o'rganadi. Forobiyning tabiricha san'at, shu jumladan, musiqa ilohiy ne'mat emas, balki inson ijodining mahsulidir. Uning vazifasi insonga o'z intellektual va axloqiy



sifatlarini takomillashtirishda foydali bo'lishidan iborat. Musiqa haqida Ibn Sino o'zining besh asarida yozgan. Bu "Kitob ash-shifo", ("Shifo kitobi") nomli ko'p jildlik qomusiy asaming musiqa haqidagi bo'limidir. Ibn Sinoning ta'rificha san'at, jumladan, musiqa fandır. Bundan san'atning "aql bilan idrok etish" yoki "buyumlarning bilish" mohiyati kelib chiqadi. Ibn Sino musiqaning tarbiyaviy mohiyatini alohida ta'kidlab o'tgan. Bunda san'at vositasi orqali estetik didni tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratilgan. Buyuk olim ta'kidlaydiki, shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun ikki tomonlama-jismoniy barkamollik uchun jismoniy mashqlar, ma'naviy rivojlanishida musiqa madaniyati fanining rivojlanishini talab qiladi.

Asosiy qism. She'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy nozik ta'b, yuksak zakovat egasi sifatida musiqani sevib tinglar, dil-dildan zavqlanardi. Shoir talantli sankatkorlarga hamisha g'amxo'rlik qildi, yoshlarning kamoloti uchun tinmay qayg'urardi. Insoning kamolotga yetishuvida asosiy rol o'ynovchi vositalardan biri - musiqa san'atidan baxramand bo'lish deb bildi. "Musiqani idrok etmagan shoir nim shoirdir",-deydi Navoiy. Bu kalima shoir estetik qarashlarining mohiyatini yaqqol ko'rsatadi. O'zbek xalqi hayotidagi murakkab tarixiy sharoitlar madaniyat va turmushning feodal me'yorlari doirasidan tashqari chiqish imkonini bermagan. Asrlar davomida yig'ilgan oddiy va ma'naviy boyliklarni bosqinchilar egallab olgan yoki yo'q qilib tashlashgan. Qilich va zo'rlik o'zbek xalqining ko'pgina madaniy boyiklarini yo'q qilib yubordi. Lekin shunga qaramasdan davrlar osha, tarixi bo'ronlar osha xalqning qimmatli madaniy merosi shu kunlarga yetib keldi. Ongli mehnat jarayonida inson tafakkuri takomillashtirdi va taraqqiy ettirdi. His-tuyg'ularni, kayfiyat, ehtirolarni ifodalash-musiqaning eng kuchli xususiyatiga aylandi. Kishining his va kayfiyati o'z-o'zicha namoyon bo'lmaydi. Kishining his va kayfiyatlari manbai real hayotdir. Biz vaziyat ta'siriga ko'ra yo g'am chekamiz, yoki xursand bo'lamiz, g'azabimiz oshadi, yoki shodligimiz ichimizga sig'maydi, yoki ranju-alam chekamiz. Binobarin, agar musiqa bunday his-tuyg'ularni ifodalar ekan, demak, u voqelikni aks ettiradi. Ammo musiqa mazmunini muayyan bir hislar ifodasidan iborat qilib qo'yish yaramaydi. Musiqa, shuningdek, fikrlarni o'zida mujassamlantirishga ham qobildir. Musiqiy merosni asrash tushunchasining mohiyati shunchaki o'tmish g'oyalarini ko'r-ko'rona takrorlash va saqlash emas, balki uni ongli dunyoqarash, insoniyat manfaatlari nuqtai nazaridan rivojlantirish, tanqidiy o'zlashtirish, ijodni qayta ko'rib chiqish zarurligini bildiradi. Kompozitorlarimizning xalq musiqa madaniyatini ijodiy o'rganishi natijasida o'zbek madaniyati xazinasiga bebaho dur bo'lib qo'shilgan san'at asarlari vujudga keldi. Go'zallikka tashnalik



sezgan inson qalbidan, yurak to'ridan o'rin olgan qo'shiqlar kompozitorlar ijodini shakllanishida fundamental asos sanaladi. Shunday qilib, musiqa voqelikni alohida, faqat unga xos shaklda aks ettiradi, jamiyat va zamonning asosiy g'oyalarini, kishilar munosabatidagi eng muhim narsalarni ifodalaydi. Musiqa voqelikni falsafiy umumlashtirilgan asosda anglaydi. Har bir kompozitor ijodida u yashayotgan zamonning, davming qandaydir xususiyati o'z ifodasini topadi. Musiqaning kishilarga ta'siri juda kuchlidir, chunki u kishilar his-tuyg'ularini o'ziga maftun etadigan, yuksak emotsional san'atdir.

Musiqa madaniyati kishiga ilgari uncha ma'lum bo'lmagan ajoyib yuksak tuyg'ularni ochib beradi, u kishini o'zgartirib yuborishga, uning qalbini noziklashtirishga, ruhan boyitishga qodir. Shuning uchun ham musiqani inson tabiatidagi barcha yaxshi hislatlarning ifodasi deb bekorga aytmaganlar. Musiqani sevgan kishi ruhan boyiydi, qalban noziklashadi, ma'naviyati yuksaladi.

2017-2018-o'quv yilidan maktablarda yillik o'rta ta'limning joriy etilishi ham o'z navbatida o'qituvchilarning malaka oshirishga bo'lgan yangi ehtiyojlarni keltirib chiqardi. Ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar va o'qituvchilarning yuqoridagi keltirilgan ehtiyojlari malaka oshirishning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o'zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda. Xususan, shu kunlarda yuqoridagi ehtiyojlardan va ular oldida ko'ndalang turgan muammolardan kelib chiqqan holda, musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining malakasini oshirish mazmuni va shakllarini takomillashtirish zarurati paydo bo'ldi.

Mashhur didaktik asar "Qobusnoma"da ham hofizlik va san'atkorlikning qoidalariga bag'ishlangan alohida bob o'rin olgan. Zaminimizda o'tkazilgan tarixiy qazilmalar natijasida topilgan dutorga, surnayga, qonunga, nayga o'xshash sozlar, toshlarga o'yib bitilgan sozandalarning soz chalib to'rganidagi tasvirlari, minyatura asarlaridagi sozanda va hofizlarning rasmlari o'lkamizda ijrochilik san'ati qadimdan rivojlanib kelganidan darak beradi. Sharq xalqlarining musiqiy merosi bo'lmish Maqom, Mo'g'om, Dastgoh, Navba, Raga, Kyui kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan. Tarixiy manbalar bilimdon ustoz san'atkorning fikri hamda ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, XII-XVII asrlarda O'rta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjon xalqlari quyidagi o'n ikki (davozdax) maqom mavjud bo'lgan. Ular "Ushshoq", "Navo", "Bo'zalik", "Rost", "Husayniy", "Xijoz", "Rohaviy", "Zangula", "Iroq", "Isfahon", "Zirofqand", "Bo'zrug" nomlari bilan atalgan maqomlarni o'rganish uchun o'quvchilarga musiqa madaniyati fanini



o'qitish, musiqa fanini maktabdagi fanlar katalogida muhim o'rin egallashini taqozo etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o'qitish orqali o'quvchilarda estetik tarbiya, ma'naviy-axloqiy fazilatlarning shakllanish dars jarayonlarning bosh mezonlaridan biriga aylandi. Umimiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati va musiqa o'qitish har bir o'quvchi-yoshlarimizning musiqa madaniyatiga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish borobarida yuksak dunyoqarashga ega bo'lishida:

Birinchidan, insondagi ko'plab qobiliyatlari tug'ma bo'lsada, musiqa madaniyatini shakllantirib borish zarur.

Ikkinchidan har bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi.

Uchinchidan o'quvchilarda musiqa madaniyati shakllanishni ta'minlaydi.

Mana shu o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish jarayonlarini takomillashtirishda musiqa fanlarning maktabda o'qitishiga, har bir fan va mavzularni o'rgatishda albatta, faol va interfaol metodlardan va vositalardan samarali foydalanib ta'limni amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Umimiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati va musiqa o'qitish metodikasining asosiy va birinchi unsuri, bu bilimdir. Ammo bilimlar ko'p... Ikkinchi asosiy qismi ana shu bilimlar zahirida shakllanadigan musiqa madaniyatiga fazilatlar va tajriba. Uchinchi unsuri: o'quvchilarga musiqa madaniyatini o'rganish, estetik madaniyatni aniq mo'ljal va maqsadlar tizimini to'g'ri tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipova G. "Musiqa va uning o'qitish metodikasi" Toshkent-2006;
2. Hasanova X. "Qo'shiqlar sehri" Toshkent-2012;
3. Karimova D., Yakubova Sh. "Bolalar musiqa asarlari ustida ishlash" Toshkent-2016;
4. Umumta'lim maktablarining musiqa darsliklari (1-5 sinflar)
5. Umurova Marifat Yoshiyevna The role of the creative heritage of eastern thinkers in the formation of the spiritual and moral outlook and musical perception of young people 2021/4/23 102-104
6. Umurova M. Yo. The importance of using pedagogical technologies in special educational schools //Vestnik nauki i obrazovaniya. – 2020. – №. 22-2. – S. 24-26.
7. Umurova Ma'Rifat Yoshiyevna (2022). O'QUVCHILARDA VATANPARVARLLIK TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY



ADABIYOT VA MUSIQANING ROLI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), (Special issue), 87-91.

8. Umurova M.Yo. (2023). OILAVIY MAROSIM QO'SHIQLARINI O'RGANISHNI TO'GARAK VA MILLIY BAYRAMLAR ASOSIDA AMALGA OSHIRISH. Экономика и социум, (3- (106)), 317-321.



ВИДЫ ЭЛЕКТРОТЕХНИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛОВ

Марина Саурбаева Мирзатовна

Преподаватель по спецпредметам Профессиональная школа города
Чирчика

Аннотация: В данной статье дается понятие о видах электротехнических материалов, применение в энергетике, свойства каждого из них.

Ключевые слова: Проводники, диэлектрики, полупроводники, магнетики, парамагнетики, диамагнетики.

Способность проводника проводить электрический ток называют проводимостью. А эти вещества называют проводниками. Хорошо проводят электрический ток металлы. Это серебро, медь, алюминий. Если металлы смешивают с другими веществами, то соответственно они теряют частично свою проводимость. Также хорошо проводят электрический ток кислоты, щелочи, соли, активированный уголь.

Вещества, которые плохо проводят электрический ток называются диэлектриками. Это воздух, инертные газы, различные смолы, пластмассы, стекло, парафин, слюда, керамика и др.

К полупроводниковым материалам относятся материалы, которые занимают промежуточное значение по способности пропускания электрического тока между проводниками и изоляторами (диэлектриками). К ним относятся химические элементы 4-ой группы - германий, кремний, химические соединения галлия и индия. Из полупроводниковых материалов изготавливают полупроводниковые приборы - диоды, полупроводниковые резисторы, транзисторы, тиристоры, микросхемы и др.

В свою очередь все материалы являются магнетиками: ферромагнетики, парамагнетики, диамагнетики.

1. **Ферромагнетизм:** в ферромагнитных материалах магнитные моменты атомов внутри материала ориентированы в одном направлении, что приводит к возникновению магнитного поля внутри материала. При наличии внешнего магнитного поля ферромагнитные материалы могут стать постоянными магнитами.

2. **Диамагнетизм:** в диамагнитных материалах магнитные моменты атомов не ориентированы и не имеют магнитного поля. Когда внешнее магнитное поле

направлено на материал, он проявляет слабую и противоположную магнитную реакцию, но это магнитное поле намного слабее, чем в ферромагнитных или парамагнитных материалах.


3. **Парамагнетизм:** в парамагнитных материалах магнитные моменты атомов не ориентированы, но могут быть ориентированы в присутствии внешнего магнитного поля. Это приводит к возникновению магнитного поля в материале, которое слабее, чем в ферромагнитных материалах.



Яркий пример диамагнетизма Маглев, поезд на магнитной подушке.

Маглев — это поезд, который использует для движения магнитную силу. Система отрывает состав с пассажирами от поверхности, позволяя избежать трения, и толкает его вперед. Благодаря технологии магнитной подвески поезд

движется по направляющим, которые контролируют его устойчивость и скорость.



Использованная литература:

1. В статье использованы Интернет ресурсы.



MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLA SHAXSIGA YANGICHA YONDASHUV

**Malika Mirzaeva Mutalovna,
Maxprat Qayumova Voxidjon qizi**

Namangan viloyat To'raqo'rg'on tuman 27-sonli DMTT tarbiyachilari

Nafisa Ibragimova Akbaralievna
Namangan shahar 24-sonli DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim asosida pedagogik jarayonlarning tashkil etish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: bola, tarbiyachi, pedagogik muhit, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, rivojlanish markazlari

Annotation: This article describes the organization of pedagogical processes based on child-oriented education in the preschool education system.

Keywords: child, educator, pedagogical environment, person-oriented education, competence approach, development centers

Maktabgacha ta'lim tizimi bugungi ijtimoiy turmush tarzimizning muhim qadamlaridan biriga aylanayotgani, tizimning yangi bosqichga rivojlanayotgani ham ota-onani, ham jajji farzandlarimizni quvontiradi. Yangidan barpo qilinayotgan maktabgacha talim tashkilotlari binolarida ilk bor ta'lim olayotgan o'g'il-qizlarimiz nainki sog'lom ovqatlanish turidan balki sifatli ta'lim mashg'ulotlaridan ham bahramand bo'lishmoqda.

Avvalo, sohani tubdan rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son hamda 2019-yil 8-may 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha qarorlari yo'l xaritasi bo'ldi desak yanglishmaymiz. Darhaqiqat, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'gini hisoblanadi. Bu davrda bola dunyoni ahglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila va Vatanga mehri uyg'onadi, umri davomida oladigan bilimlariga zamin hozirlanadi. Bunda oila bilan birga maktabgacha ta'lim tashkilotining o'rni kattadir. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida, yosh



avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalash masalalariga doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim maktabgacha ta'lim konsepsiyasining nazariy jihatdan ustivor tamoyillaridan biri hisoblanadi. Shaxsga ongli ravishda yondoshning maqsadi rivojlantirish, uni berilgan standart va bosim ostida "o'zgari emas", balki uni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish uchun sharoit yaratishni ko'zlaydi.

Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuv deganda bolalarni ta'lim tashkilotida egallagan bilimlari orqali kundalik hayotda duch kelinadigan tanish yoki notanish vaziyatlarda foydalanishga tayyorlashdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, «Men» obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi.

Bolalarda o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanish imkoniyati yaratiladi. O'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari barcha yosh guruhlarida tashkil etilgan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, bo'layotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanish markazlarini tashkil etish Davlat talablari va «Ilk qadam» davlat o'quv dasturini amalga oshirishni nazarda tutadi. Markazlarda ishlash har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda eng samarali rivojlanishiga imkon beradigan tarzda, uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, faoliyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalari va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berishdir.

Rivojlanish markazlari ta'lim, rivojlantiruvchi, o'qitish, rag'batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak. Eng muhimi, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishlashlari kerak, bolalar va kattalar o'rtasidagi



o‘zaro munosabatlarning shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limga asoslangan bolaning tashabbusini rag‘batlantirishi kerak. O‘yin jarayonida bolalar hamkorlik qilishga o‘rganadi, qoidalar bilan tanishadi va yangilarini ishlab chiqadi, o‘ziga va boshqalarga baho berish ko‘nikmalari rivojlanadi, shaxsiy, jismoniy, intellektual va ijtimoiy muammolarni hal etadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida rivojlantiruvchi pedagogik muhitning sifatleri: bolalar yoshiga mosligi, estetik jihatdan ko‘rkamligi, gigiyenik talablarga javob berishi, tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlanganligi, bolalarni barchasi foydalanishi mumkinligi, bolalar ruhiyatiga mosligi, rivojlantiruvchi ahamiyatga egaligidir.

Ta‘lim-tarbiya jarayonida har bir bolani shaxs sifatida tan olish, uning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hozirgi kunning talabi hisoblanadi. “Bolalarning shaxsga yo‘naltirilgan o‘zaro ta‘sirini ta‘minlaydigan rivojlanish muhiti mustaqillikning rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Agar bola o‘z qiziqishlarini, ehtiyojlarini bemalol anglasa, o‘z xohish-irodasini namoyon qilsa, uning faoliyati kuchli motivatsiyaga ega bo‘ladi, u hissiy jihatdan to‘yingan va psixologik jihatdan qulaydir”[1]. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning markazida o‘sayotgan inson, uning o‘z imkoniyatlarini to‘la namoyon etishga intilishi, yangi tajribani qabul qilishi, turli hayotiy vaziyatlarda ongli ravishda va mas‘uliyatli qaror qabul qilishga qodirligi turadi.

Shuni unutmaslik kerakki, kelajak poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta‘lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, tarbiyachi va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta‘lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta‘lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi. “Tarbiyachi tomonidan qo‘llaniladigan interfaol usullar bolalarning qiziqishi va ehtiyojlarini qondiradigan darajada tashkil etilishi maktabgacha ta‘limning sifatini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi”[2]. Maktabgacha ta‘lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinish jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etiladi.

Bugungi kunga kelib bola shaxsiga rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim yangicha mazmun bilan boyimoqda. Buning natijasida bolaning ehtiyojlari insoniy munosabatlar ob‘yekti sifatida faollashmoqda. Bu o‘zaro kelishuv, bir-birini



tushunish, hamkorlik hamda qo‘llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanishi kerak. Shu munosabat bilan biz shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim ob‘yektiv, sub‘yektiv munosabatlar yig‘indisini har bir insonga xos bo‘lgan mustaqil qadriyatlar sifatida aniqlashga intilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizova G.M.Zamonaviy o‘zbek oilalarida o‘smir bolalar shaxsi shakllanishi. “Xalq ta’limi” 2022 yil. 3-son. 21-22 b
2. Ishmuxamedov D. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar.-Toshkent.: “O‘qituvchi” 2013 y. 110 b



MAQSUD SHAYXZODANING MASHAQQATLI G'ALABASI

Behruz Qo'ziboyev Bahodir o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti Elektrotexnika va kompyuter muhandisligi
fakulteti talabasi

Dilnoza Qo'ziboyeva Bahodir qizi

Toshkent davlat transport universiteti Transport tizimlari boshqaruvi fakulteti
talabasi

Annotatsiya: Maqolani o'quvchi kishi Maqsud Shayxzoda ijodi yo'lidagi g'alabalarga qanaqangi mashaqqatlar bilan erishganligiga amin bo'ladi.

Kalit so'zlar: Og'ir ijod yo'li, g'alaba mevasi, tirishqoqlik, barkamol avlod, intiluvchanlik.

Annotation: The reader of the article will be sure that Maqsud Sheikhzada achieved victories in the way of his work with what hardships.

Keywords: The difficult path of creativity, the fruit of victory, perseverance, perfect generation, aspiration.

Adib tinch va osuda sharoitda - shoir sifatida kitobxonlar, pedagog olim sifatida esa talabalar mehr-muhabbatini qozongan kunlarda tanishib, hamkorlik qilgan, ziyoli deb, samimiy inson deb hurmat qilgan kishilarning uyalmay-netmay unga nisbatan oshkora xiyonat qilganliklari sababini tushuna olmadi. To'g'ri, ularga ham oson bo'lmagan. NKVD-MVDga chaqirilgan kishi, avvalo, shu yerdan sog'-omon chiqishini o'ylagan. Lekin zolim dohiyning o'limi bilan zamon o'zgara boshlagan edi. Qatag'on qilichi singan edi. Hatto lagerda azob-uqubat chekkan mahbuslarning bir qismi o'sha paytning o'zidayoq ozodlikka chiqa boshlagan, boshqa qismi esa yaqin kunlar ichida ozod bo'lishlariga katta umid bilan yashayotgan edilar. Nahotki, ular taqdirini Rustam Abdurahmonovdek ko'nglida nafaqat rahm-shafqat, balki insof degan narsa qolmagan razil kimsalar hal qilishgan bo'lsa?! Shayxzodaning xayolida nima uchundir yana 1951-yilning 31-yanvaridagi mash'um yig'ilish jonlandi. Ana, Yozuvchilar uyushmasi hay'atida uyushma raisi Uyg'un, uning o'rinbosari Sheverdin, Milchakov, Mirmuhsin, Fatxullin, Safarov, Stanishevskiy, Bryansev, Lipko, Vladimirov savlat to'kib o'tiribdilar... Shayxzoda ular orasida Rustam Abdurahmonovning bo'lgan yo bo'lmaganini eslamoqchi bo'ldi. Hay'atda yana Yashin, zalda esa Ramz Bobojon, Asqad Muxtor, Parda Tursun, Tuyg'un, Udalov,



Adham Rahmat, Lixodziyevskiy, Chexonoves, Levitina, Parmuzin, Sviridov, Andrey Ivanovlar bor edilar. Yo‘q, Rustam Abdurahmonov bo‘lmagan... U holda yig‘ilishda menga qo‘yilgan ayblarni u qayerdan bilgan? Nahotki, u ham siyosiy idoraning xufyalaridan biri bo‘lgan bo‘lsa?! Nahotki, ekspertlar komissiyasi a‘zolari ham, Milchakov va Sheverdinlarning qora guruhdek, uni yana jar yoqasiga olib borib, chekistlarga: “Ana endi bemalol otib tashlayvering!” – desalar... U shunday iztirobli xayollar girdobida qoldi. Ekspertlar Shayxzoda ijodidagi millatchilik ko‘rinishlari, feodal o‘tmishning ideallashtirilishi, tarixiy haqiqat va sovet voqeligining buzilishi hamda eskirgan arabcha-forscha so‘zlarning qo‘llanishiga doir masalalarni mufassal o‘rganib, bunday xulosaga keldilar:

Shunday qilib, tekshirish natijasida ekspertlar komissiyasi Shayxzoda asarlarida millatchilik va milliy mahdudlik ko‘rinishlari, feodal o‘tmishni ideallashtirish, sovet voqeligini buzib ko‘rsatish, eskirgan arabcha-forscha so‘zlar, shuningdek, diniy so‘z va tushunchalarni qo‘llash hollari chindan ham mavjudligini aniqladi”.

Komissiya Shayxzoda she‘ridagi “O‘ziga beklik – o‘zbekka chiroy” satriga asoslanib, shoir asarlarida millatchilik ko‘rinishlari mavjudligini “isbotlagan”, olimning ayrim jadidlarning sovet pozitsiyasiga o‘tganligi haqidagi qarashlari, Jaloliddin obrazining ijobiy qahramon sifatida tasvirlagani, “Alpomish” dostonining jahon madaniyatini boyitgan asar sifatida baholaganini esa feodal o‘tmishni ideallashtirish va tarixiy haqiqatni buzib ko‘rsatishning yorqin namunasi, deb talqin qilgan edi. Shayxzoda komissiyaning shunga o‘xshash kulgili ayblardan iborat xulosasi bilan tanishgach, ekspertlarning masalani xolisona o‘rganmaganlarini ko‘rib, qat’iy norozilik bildirdi. Xulosada bayon etilgan tanqidiy fikrlarni rad etuvchi 10 moddadan iborat ko‘rgazmasini tergovga taqdim qildi. Agar mahbus ekspertlarning masalaga noxolislik bilan yondashganlari tufayli komissiya xulosasidan norozi bo‘lgan bo‘lsa, tergovchi ularning mahbusga go‘yo yon bosib ishlaganlari tufayli ular xulosasidan qanoatlanmadi. U Shayxzodaning “Pravda Vostoka” gazetasida rus tilida bosilgan maqolalarini I.Ya.Sirkinaga taqriz qilish uchun beradi. Ida Yakovlevna 1954-yil 31-mart sanali qo‘lyozma ko‘rgazmasi bilan bu maqolalarda birorta ham siyosiy xatoning yo‘qligini aytib, shoirni mardona himoya qiladi. Ammo tergovchiga mutlaqo boshqa ruhdagi taqriz lozim edi. Shuning uchun u mahbusning mazkur gazetada bosilgan 3 ta maqolasini tanlab olib, ularni qayta baholash ishini Milchakovga topshiradi. Milchakov bu maqolalarni bir oy davomida hijjalab o‘qib, 1954-yil 2-aprelda boshdan-oyoq tuhmatdan iborat taqriz yozib beradi. Shayxzodaning yozma ko‘rgazmasi bilan tanishgan komissiya a‘zolari esa sanasi qayd etilmagan javoblari bilan o‘zlarining badiiy asarni o‘qish va tushunish



madaniyatidan mutlaqo uzoq kimsalar ekanliklarini yana bir bor namoyish etadilar. Shayxzodaning ishi O‘zSSR Ichki ishlar vazirligiga garchand qayta ko‘rib chiqish uchun yuborilgan bo‘lsa-da, yuqorida aytilganidek, siyosiy idoraning maqsadi hukmni o‘z kuchida qoldirish va shu yo‘l bilan 30-50-yillarda amalga oshirgan jinoyatli ishlarining fosh etilishiga mutlaqo yo‘l qo‘ymaslik edi. Shuning uchun tergovchilar, bir tomondan, 1937-yil qurbonlaridan olingan ko‘rgazmalarni yana ishga solishga, ikkinchi tomondan, kuni kecha qamoqqa olingan mahbuslar “xizmat”idan foydalanishga qaror qildilar. (Bu mahbuslarning ba’zilari vijdotsizliklari, boshqalari esa qo‘rqoqliklari orqasida Shayxzodaga qarshi ma’lumot bergan edilar.) Tergovchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun hatto Shayxzodadan Tuyg‘un, Mirhojiyev, Melkumov singari kimsalarning raqiblar tarafiga o‘tib ketish sabablarini bilishga va shu narsadan ham ustalik bilan foydalanishga harakat qildilar. Lekin Shayxzoda ular munofiqligi sabablarini aytgani holda birorta ham qalamkash birodariga gard yuqtirmadi va o‘zini ham mardona turib himoya qildi. Tergov to‘rt oy davomida mahbusga qo‘yilgan ayblarni asoslovchi biror dalil-ashyoni topolmadi. Stalin o‘limidan keyin esa faqat guvohlarning ko‘rgazmalari asosida qamoqqa olish amaliyoti bekor qilingan edi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Ichki ishlar ministrligi xodimlari 1954-yil 4-iyunda Shayxzodaning “jinoiy ishi”ni to‘xtatish va uni ozod qilish to‘g‘risidagi qarorga imzo chekishga majbur bo‘ldilar. 7-iyun kuni bu qaror O‘zSSR Ministrlar Soveti qoshidagi Davlat xavfsizlik komiteti raisining o‘rinbosari general-mayor Bizov va O‘zSSR prokurori 2-toifadagi davlat adliya maslahatchisi Yaskovskiy tomonidan tasdiqlandi. Shayxzoda, nihoyat, g‘alaba qozondi. Ezilgan, bukilgan, aftodahol adolat yana qaddi-qomatini tikladi. Ammo bu qanday kurash-u qanday g‘alaba edi. Har qanday kurashda kimdir g‘olib chiqadi. Kimdir mag‘lubiyat azobini tortadi. Shayxzoda goh maxfiy, goh oshkora kechgan hayot-mamot kurashida g‘alaba qozondi. Uning dushmanlari mag‘lubiyat alamini totdilar. Kurash qonuniga ko‘ra, ular Shayxzodaga chekkan azoblari, yo‘qotgan sog‘lig‘i, tergov, qamoq va lagerda kechgan umri va azob-uqubatlari uchun tovon to‘lashlari lozim edi. Ular bunday tovonni to‘lamadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Naim Karimov “Maqsud Shayxzoda” tarixiy-bibliografik roman.
2. Maqsud Shayxzoda haqidagi maqolalar to‘plami.



ТОРТИНЧОҚЛИК ПЕДАГОГНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИГА НЕГАТИВ ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛ СИФАТИДА

И.Ғ.Рахимова

Низомий номидаги ТДПУ нинг “Умумий психология” кафедрасининг
ўқитувчиси, психология бўйича фалсафа фанлари доктори(PhD)

Аннотация: Мақолада шахс хислатларидан бири бўлмиш тортинчоқлик ҳақида, Тортинчоқлик – бу турли шакллардан намоён бўлувчи мураккаб комплекс ҳолат. Бу энгил ноқулайлик бўлиши ҳам мумкин, тушунтириб бўлмайдиган қурқув ва ҳаттоки, чуқур невроз бўлиши ҳам мумкин, шунингдек тортинчоқликни педагог фаолиятига салбий таъсири ҳақида баён этилади.

Калит сўзлар: тортинчоқлик, педагогик фаолият, ижтимоий хулқ.

Маълумки, педагогик фаолият касбий мақсади одамларга таълим ва тербия беришдан иборат бўлган, жамиятнинг катта ёшдаги аъзолари томонидан амалга ошириладиган фаолиятдир. Албатта, мулоқотчанлик, ташкилотчилик каби қобилиятларнинг юқори даражасини талаб қилувчи касб соҳасида ортиқча тортинчоқлик меҳнат жараёнининг самарадорлигига сезиларли салбий таъсир кўрсатишини тахмин қилиш қийин эмас. Тортинчоқликни эътибор бермасам ҳам бўладиган, шунчаки майда ноқулайлик деб бўлмайди. Тортинчоқлик – шамоллашга ўхшайди. Агар уни даволамаса, у сурункали шаклга ўтиб кетиши мумкин. Бунда у ёмон кайфият, баъзан – касаллик, баъзида эса эс-ҳушдан айрилишни келтириб чиқариши мумкин. Тортинчоқлик инсонни ўз-ўзини англаш, тушуниш ва назорат қилиш туйғуларини ҳис этишга мажбур этади. Тортинчоқ инсон ўз-ўзига баҳо бериш ва анализ қилишнинг пастлигидан азият чекади, у ўзини кузатиш ва анализ қилиш объектига айлантириб қўяди. Ўз-ўзини баҳолаш даражасининг пастлиги мукамал эмаслик, зарарлилик, лойиқ эмаслик туйғуларини келтириб чиқаради ҳамда бу шахснинг психик ҳолати ва ижтимоий хулқига салбий таъсир этади. Ўз-ўзини баҳолаш даражаси паст бўлган инсонлар учун «Мен образлари» ва ўзи ҳақидаги фикрларнинг умумий турғун эмаслиги хосдир.

Тортинчоқлик – бу турли шакллардан намоён бўлувчи мураккаб комплекс ҳолат. Бу энгил ноқулайлик бўлиши ҳам мумкин, тушунтириб бўлмайдиган қурқув ва ҳаттоки, чуқур невроз бўлиши ҳам мумкин. Инсонлар ичдан тортинчоқ ва ташқаридан тортинчоққа бўлинади. Ташқаридан тортинчоқ



одамлар одамови ёки камгап бўладилар, уларга ижтимоий кўникмалар етишмайди. Бу эса уларнинг бошқа инсонлар билан ўзаро муносабатларига таъсир кўрсатади ва бу ўз навбатида ўз-ўзига баҳо беришни чуқурлаштириб юборади ҳамда инсонни туюқликка олиб келади. Ташқаридан тортинчоқ одамлар кўпинча жамиятда ўзлари лойиқ бўлган мавқедан қуйроқ мавқега эга бўладилар ва камдан-кам ҳолларда пешқадам бўладилар. Ташқаридан тортинчоқ интровертларга қараганда экстриверт тортинчоқлар анча ютуқларга эришадилар. Уларнинг ижтимоий кўникмалари анчайин ривожланган, улар мулоқот кўникмаларини яхши ўзлаштирганлар. Улар нима қилиш кераклигини, бошқаларнинг кўнглини олиш, уларни барча тан олишини, ўз мавқеини оширишни биладилар. Агар ичдан тортинчоқ одамлар истеъдодли бўлсалар, унда уларнинг келажаклари кўпинча порлоқ бўлади. Тўғриси бу улардан катта эмоционал ҳаракатларни талаб этади.

Психоанализда тортинчоқлик шахс ривождаги ортда қолишлар, яъни «Мен» ва олий «Мен» билан боғланади. Болада у гўдаклик чоғидан, ўз оналари ва бошқа у яхши кўрадиган, қойил қоладиган инсонларни кузатиш орқали, «Мен» (идеал Мен) идеал образи шакллана боради ва у доимо болага ҳамроҳлик қилади. «Мен» ва «Идеал Мен» орасидаги реал масофа узок бўлган сайин, бола идеал - Менга мос келиш ҳаракатида муваффақиятсизликка учраши биланок, у тортинчоқликни шунчалик кўпроқ бошдан ўтказди. Албатта, бола идеал-Менга мувофиқ яшашни қанчалик кўп хоҳламасин, у шунчалик заифлаша ва охир оқибат ўта тортинчоқ бўла боради.

Бироқ бундай ҳолат педагогнинг таълимий фаолиятига ўзига хос тарзда, тарбиявий ишига ўзгача таъсир кўрсатса керак. Ҳар қалай педагогик фаолият бевосита фаол ҳиссий бўёқдор мулоқотни тақозо этиши ушбу соҳа мутахассисларида “эмоционал куйиш”дек руҳий бузилиш эҳтимолини оширади. Махсус тадқиқотларда эса “эмоционал куйиш” синдроми шаклланган педагоглар шахсига невротизм (ҳиссий соҳанинг беқарорлиги), депрессивлик (тушкун кайфиятга мойиллик), юқори даражадаги эмоционал лабиллик (ҳиссий таъсирчанлик), феминлик (аёлларга хос хусусиятларга эгалик) қаторида тортинчоқлик билан тавсифланиши аниқланган. Шунга мувофиқ қатор бошқа хусусиятлар билан бирга тортинчоқлик педагогда “эмоционал куйиш” синдроми вужудга келишига сабаб бўлиши мумкинлиги ҳақида тахмин қилиш ўринли. Шу тариқа ҳам тортинчоқлик педагогик фаолиятга салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Қолаверса, педагогик амалиётда иштирок этган битирувчи курс талабалари ўртасида ўтказилган ижтимоий-психологик сўровларнинг



натижаси ҳам шуни кўрсатадики, талабалар педагогик фаолиятни самарали амалга оширишга ҳалақит берувчи шахс хусусиятлари қаторида журъатсизлик, тажовузкорлик, эътиборсизлик, унутувчанлик, ирода кучининг етишмаслиги, импульсивлик билан бирга тортинчоқликни ҳам тилга оладилар.

Ҳар қандай жамоадаги ўзаро муносабатлар муайян ижтимоий-психологик қонуниятлар асосида ривожланади. Шубҳасиз, одамнинг шахсий сифатлари гуруҳдошларнинг унга бўлган муносабатини белгилаб берувчи гарчанд ягона бўлмаса ҳам муҳим омиллардан биридир. Шу жумладан, шахснинг тортинчоқлиги ҳам бундай хусусиятлар турига киради. Тадқиқотларнинг натижалари кўрсатишича, психологияда буллинг деб аталадиган ҳодиса, яъни гуруҳдошлар томонидан узоқ муддат тазйиқ қилиниш ҳолатига дучор бўлган одамлар одатда низоли вазиятлардан ўзини олиб қочишга мойиллик, таъсирчанлик, одамовилик, жисмоний қувватсизлик, ўзига паст баҳо бериш, хилма хил психосоматик аломатлар, юқори даражадаги хавотирланувчанлик, ўқишга иштиёқнинг пастлиги, мулоқотга киришишда қийинчиликларга учраш каби хусусиятлар билан тавсифланишидан ташқари уларга тортинчоқлик сифати яққол хослиги кузатилади.

Албатта, меҳнат тажрибаси ортган сайин мутахассис одам ҳам шахс сифатида ўзгариб боради. Ўзгариш жараёни тортинчоқлик ҳисси даражасини ҳам қамраб олишини кутиш ўринли. Негаки тажрибанинг ортиши, мутахассисда ўзига ишончни кучайтириб боради, бу эса унинг тортинчоқлик даражасини сусайтиришини кутиш ўринли. Махсус тадқиқотларнинг натижалари ҳам шуни кўрсатадики, ёш мутахассислар ўзларида тажрибали мутахассисларга нисбатан етакчиликка интилиш даражаси пастлиги ва аксинча, тортинчоқлик билан боғлиқ мойилликлар юқори бўлишини таъкидлайдилар. Қизиғи шундаки, етакчиликка ва тортинчоқликка бўлган бундай муносабат ёш мутахассисларнинг ўзлари намуна деб ҳисоблаган мутахассисга тавсиф берган вазиятларда ҳам сақланиб қолади. Шундай қилиб, тортинчоқлик педагог фаолиятига салбий таъсир қилади.

Адабиётлар:

1. Дустмухамедова Ш.А., Нишанова З.Т., Эргашев П.С.,Рахимова И.Ф. Тортинчоқлик: ҳаётий саволларга илмий-амалий жавоблар. -Т.: ТДПУ.2013.-119 б.
2. Зимбардо Ф. Застенчивость.-М.: Педагогика.1999.



3. Таперко В.С. К вопросу о психологическом консультировании педагогов с синдромом “эмоционального выгорания” // Системогенез учебной и профессиональной деятельности: Сборник научных трудов V всероссийской научно-практической конференции. 2011 г. Ярославль-С.266-267.



MAQSUD SHAYXZODAGA QO‘YILGAN DASTLABKI AYBNOMA

Behruz Qo‘ziboyev Bahodir o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti Elektrotexnika va kompyuter muhandisligi
fakulteti talabasi

Dilnoza Qo‘ziboyeva Bahodir qizi

Toshkent davlat transport universiteti Transport tizimlari boshqaruvi fakulteti
talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolani o‘qish mobaynida siz Maqsud Shayxzodaning ijod yo‘li va hayotiy faoliyatiga qo‘yilgan aybnomalar bilan tanishib chiqasiz.

Kalit so‘zlar: Ijodiy to‘siqlar, aybnoma, taqdid, zulm, vatanparvarlik.

Annotation: While reading this article, you will get acquainted with the accusations against Maqsud Sheikhzadeh's creative path and life activity.

Keywords: Creative barriers, accusation, condemnation, oppression, patriotism.

Shunaqangi fikrlar borki, go‘yo 50-yillardagi qatag‘on 1937-1938-yillardagidan keskin farq qilgan: go‘yo tergovchilar mahbuslarga nisbatan tazyiq o‘tkazishmagan, ularning insoniy haq-huquqlarini toptab, qiynashmagan. To‘g‘ri, 50-yillardagi tergov paytida qiynoqdan o‘lish hodisalari oz bo‘lgan. Ammo tergovchining xohlagan kishini biror dalil-ashyosiz sovetlarga qarshi millatchilik faoliyatida ayblashi va bechora mahbusning 25 yilga ozodlikdan mahrum etilishi hech gap emas edi. 4 oktyabr kuni soat 12 da tergovchi mahbusni chaqirib, unga “Dastlabki aybnoma haqidagi qaror”ni e‘lon qiladi. Bu qarorda esa quyidagi so‘zlar yozilgan edi: “Shayxzodaning uzoq davr mobaynida uyushtirilgan sovetlarga qarshi millatchilik faoliyati bilan faol shug‘ullangani tergov materiallari asosida yetarli darajada fosh etildi. O‘z asarlarida Sharq xalqlarining feodal o‘tmishini ideallashtirib, sovet voqeligini buzdi, burjua millatchilik mafkurasini o‘tkazdi, shu bilan birga o‘z davrasida VKP(b)ning milliy siyosatiga tuhmat qilib, sovetlarga qarshi targ‘ibot olib bordi. O‘zSSR JPKning 40 va 41-moddalariga asoslanib,

QAROR QILAMAN: Maqsud Shayxzoda ayblanuvchi sifatida O‘zSSR JKning 66, P qismi, va 67-moddalari bo‘yicha ayblansin va shu qaror, ostiga imzo qo‘yish sharti bilan, ayblanuvchiga e‘lon qilinsin. Qaror nusxasi prokurorga yuborilsin.

O‘zSSR MGB tergov bo‘limi 1-bo‘linmasi boshlig‘i o‘rinbosari DX leytenanti
AUBAKIROV.



“Roziman”: O‘zSSR MGB tergov bo‘limi 1-bo‘linmasi boshlig‘i DX katta leytenanti ROVENSKIY.

Qaror menga 1952-yil 4-oktyabrda e‘lon qilindi. Shayxzoda imzosi”. Tergovchi mahbusni mazkur qaror bilan tanishtirgach, soat 16.30 ga qadar so‘roq qilishda davom etadi va unga ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan ayblarni qo‘yadi. Mahbus bu boshdan-oyoq uydirma ayblarni rad etgach, 1937-yil tergovchilaridek, mahbusga do‘q urib, uni tahqirlaydi.

Munofiqlik qilishni bas qiling. Shu narsa aniqlandiki, siz adabiy asarlaringizda sovet voqeligini, partiya va hukumat arboblari obrazini har jihatdan buzib, o‘z davrangizda sovetlarga qarshi kuchli targ‘ibotni olib borgansiz...” Mahbus tergovchining bu tuhmatiga javoban qator asarlarini sanab, ularda vatanparvarlik g‘oyalarini olg‘a surgani to‘g‘risida og‘iz ochishi bilan tergovchi uning so‘zini bo‘ladi va deydi. Siz millatchilik e‘tiqodingizdan kelib chiqib, sovet voqeligi va VKP(b) MK siyosatiga zaharli tuhmat qilganingizda qanday “vatanparlik” to‘g‘risida so‘z bo‘lishi mumkin. Men bor gapni aytyapman va tergovdan hech narsani yashirmayapman”. Tergov materiallari bilan tanishgan kishi tergovchining 30-yillardagi chalasavod tergovchilarga nisbatan savodli bo‘lganini sezmay iloji yo‘q. Ammo tergovchining mahbusga bo‘lgan munosabati, avvaldan belgilangan va boshdan-oyoq tuhmatga asoslangan aybnoma bo‘yicha undan ko‘rgazma olishga qaratilgan harakati uning 30-yillardagi shafqatsiz hamkasblaridan zarracha ham farq qilmaganini ko‘rsatadi. Tergov ixtiyorida Shayxzodaning Dog‘istondan surgun qilinishiga doir hujjatlar mavjud bo‘lsa-da, ularda biror dalil-ashyo keltirilmagan, buning ustiga shoir o‘sha paytda anchagina yosh yigit bo‘lgan. Tergovchining bu holni inobatga olmay iloji yo‘q edi. Ammo shunga qaramay, u Shayxzodaning sovetlarga qarshi millatchilik faoliyati o‘sha paytdan boshlangan, degan xulosani o‘tkazish uchun toza harakat qildi. Tergovchi NKVD-MGB kartotekasini titkilab, Shayxzoda nomi tilga olingan barcha tergov bayonnomalarini axtarib topdi va shu bayonnomalarda zikr etilgan quyidagidek “dalil”lar yordamida boyagi xulosasini asoslamoqchi bo‘ldi. 1937 yil 13 avgustda bo‘lib o‘tgan tergov bayonnomasida qayd etilishicha, Otajon Hoshimov (Til va adabiyot institutining sobiq direktori) bunday ko‘rsatma bergan ekan: “...Shunday qilib, Shayxzoda - Cho‘lpon, Oybek - Abdulla Qodiriy, Yoqubov esa Oybek to‘g‘risida yozishdi va h.k. Biz Fayzulla Xo‘jayevning keksa aksilinqilobchi, millatchi kadrlarni avaylash to‘g‘risidagi barcha ko‘rsatmalarini bajardik: ashaddiy aksilinqilobchilar: Fitrat, G‘.O.Yunusov, Elbek, G‘ozi Yunus., Oybek, Muhammadjonov va boshqalarni institut tevaragida jipslashtirdik...” 1937 yil 25 sentyabrda bo‘lib o‘tgan tergov bayonnomasida esa shoir



Cho'lponning bunday so'zlari qayd qilingan edi: "...1937 yilda Til va adabiyot ilmiy-tekshirish institutida mening (Cho'lponning) ijodim haqidagi ma'ruza muhokama qilindi. Ma'ruzachi Shayxzoda Maqsud meni aksilinqilobiy millatchilik qarashlaridan voz kechib, sovet adabiyoti tomoniga o'tgan yirik o'zbek shoiri sifatida tasvirlab berdi..." 20-22 oktyabr kunlari Aubakirov tergovni ana shu so'zlarga asoslangan holda olib bordi. Shu yil 13 oktyabrda bo'lib o'tgan so'roq paytida o'zingizga tanish burjua millatchilari qatorida Cho'lponni ham tilga olgan edingiz. Siz uni qachondan beri bilasiz. Cho'lpon to'g'risida ilk bor 1928-1929 yillarda, ya'ni Toshkentga kelganimdan keyin eshitdim. Uni katta avlodga mansub o'zbek shoirlardan biri, deb aytishardi. Men u bilan taxminan 1932 yilda tanishdim. Ammo bizning tanishuvimiz qachon va qanday sharoitda ro'y berganini hozir eslay olmayman. Har holda men havaskor sifatida borib yurganim Toshkentning o'sha paytdagi yozuvchilar tashkilotida yoki gazeta va jurnal tahririyatlaridan birida ko'rishgan bo'lsam ajab emas. Cho'lponning avvalgi faoliyati to'g'risida nimalarni bilasiz. Men Cho'lpon bilan shu mavzuda shaxsan suhbatlashgan emasman. Boshqalarning so'zlaridan, kimlarning ekanligi hozir yodimda yo'q, menga shu narsa ayonki, Cho'lpon farg'onalik bo'lib, o'ziga to'q oiladan chiqqan. Uning adabiy faoliyati, chamasi, inqilobdan avval boshlangan. U o'sha paytda jadidchilik qarashlariga ega bo'lgan boshlovchi shoir sifatida tanilgan. Uning haqiqiy ism-sharifi Sulaymonov Abdulhamid, "Cho'lpon" esa adabiy taxallusi. Keng kitobxonlar davrasiga u faqat taxallusi bilan ma'lum bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Naim Karimov "Maqsud Shayxzoda" tarixiy-bibliografik roman.
- 2.Maqsud Shayxzoda haqidagi maqolalar to'plami.



НЕКОТОРЫЕ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕОРЕМЫ ПИФАГОРА

Г.Ш.Вахидов

Академический лицей при Туринском политехническом
Университете в городе Ташкенте

Аннотация: В данной статье изучаются различные примеры использования теоремы Пифагора. Теорема Пифагора, являющаяся одной из важнейших теорем евклидовой геометрии, устанавливает отношение между сторонами прямоугольного треугольника и образует основу для решения разнообразных геометрических задач.

Согласно известной теореме Пифагора, квадрат стороны, противоположной прямому углу, равен сумме квадратов двух других сторон треугольника. Мы остановимся на анализе квадратов сторон, противоположащих острым и тупым углам треугольника.

Теорема – 1. Квадрат стороны треугольника, лежащей напротив острого угла, равен разности суммы квадратов двух других сторон и удвоенного произведения одной из этих сторон на проекцию второй стороны на эту сторону.

$$a^2 = b^2 + c^2 - 2c \cdot b_c$$

Доказательство. Рассмотрим треугольник ABC со сторонами a, b и c: угол $A < 90^\circ$, $DB = b_c$, CD перпендикулярно AB.

Из прямоугольного треугольника BCD $a^2 = CD^2 + BD^2$, а из треугольника ACD находим $b^2 = CD^2 + b_c^2$ (см. рис). Тогда $CD^2 = b^2 - b_c^2$. Далее из равенства $AB = C = BD + b_c$ следует $BD = c - b_c$. В итоге имеем:

$$a^2 = CD^2 + BD^2 = b^2 - b_c^2 + (c - b_c)^2 = b^2 - b_c^2 - 2c \cdot b_c + c^2 + 2c \cdot b_c = b^2 + c^2 - 2c \cdot b_c.$$

В ходе доказательства на угол C не накладывалось никаких условий, а значит он может быть и острым, и тупым и прямым углом, следовательно, теорема доказана для произвольного треугольника.

Теорема доказана

Следствие. Квадрат стороны треугольника, противоположащей острому углу, меньше суммы квадратов двух других сторон.

Доказательство. По теореме – 1 для стороны a , лежащей напротив острого угла A имеет место равенство

$$a^2 = b^2 + c^2 - 2c \cdot b_c$$

А так как $c > 0$ и $b_c > 0$, то получим

$$b^2 + c^2 = a^2 + 2c \cdot b_c > a^2, \text{ то есть } b^2 + c^2 > a^2$$

Следствие доказано.

Пример. Найдите большую высоту треугольника со сторонами 4,5 и 6.

Решение. Большая высота треугольника падает на меньшую сторону треугольника, то есть на сторону 4. Так как $5^2 + 4^2 > 6^2$, то по следствию 27 – 1 углы, прилежащие к стороне 4 будут острыми, а значит, высота будет располагаться внутри треугольника. Две другие стороны, равные 5 и 6, обозначим через a и c , а их проекции c_b и a_b .

$AC = b = 4 \rightarrow a_b = 4 - c_b$. По следствию – 25.1 $a^2 - c^2 = a_b^2 - c_b^2$. Поэтому $a^2 - c^2 = a_b^2 - c_b^2 \rightarrow 6^2 - 5^2 = (4 - c_b)^2 - c_b^2 \rightarrow 11 = 16 - 8 \cdot c_b + c_b^2 - c_b^2 \rightarrow c_b = \frac{5}{8}$.

В треугольнике ABD известны гипотенуза $AB = c$ и катет $AD = c_b$. По теореме

Пифагора находим:

$$h^2 = c^2 - c_b^2 = 25 - \left(\frac{5}{8}\right)^2 = 25 - \frac{25}{64} = 24\frac{39}{64} \rightarrow h = \sqrt{24\frac{39}{64}}$$

$$\text{Ответ: } h = \sqrt{24\frac{39}{64}}$$

Теорема – 2. Квадрат стороны треугольника, лежащей напротив тупого угла, равен сумме квадратов двух других сторон и удвоенного произведения одной из этих сторон на проекция второй на эту сторону.

$$a^2 = b^2 + c^2 - 2c \cdot b_c$$

Доказательство. Рассмотрим треугольник ABC , в котором угол $A > 90^\circ$, $AD = b_c$, CD перпендикулярно AB .

По теореме Пифагора $a^2 = CD^2 + BD^2$, и $b^2 = CD^2 + b_c^2$. Отсюда находим $CD^2 = b^2 - b_c^2$.

Так как $AB = c = BD + b_c$, то $BD = c - b_c$. Тогда $a^2 = CD^2 + BD^2 = b^2 - b_c^2 + (c - b_c)^2 = b^2 - b_c^2 + c^2 - 2c \cdot b_c + b_c^2 = b^2 + c^2 - 2c \cdot b_c$.

Теорема доказана.

Следствие. Квадрат стороны, противолежащей тупому углу, больше суммы квадратов двух других сторон треугольника.



Доказательство. По теореме – 2 для стороны a , лежащей напротив тупого угла A имеет место равенство

$$a^2 = b^2 + c^2 - 2c \cdot b_c$$

Так как $c > 0$ и $b_c > 0$, то

$$a^2 = b^2 + c^2 - 2c \cdot b_c > b^2 + c^2.$$

Следствие доказано

Теорема – 1 и теорема – 2 имеют соответствующие обратные теоремы, а и при их доказательстве используется тот же метод, что и при доказательстве теоремы, обратной к теореме Пифагора.

Пример . Стороны треугольника равны равны 6,7 и 11. Найдите проекцию стороны 7 на сторону 6.

Решение. Так как $11^2 > 6^2 + 7^2$, то по следствию – 28.1 угол напротив стороны 11 будет тупым. Тогда проекция стороны 7 на сторону 6 будет лежать вне плоскости треугольника ABC. Далее по формуле из теоремы – 2 находим:

$$a^2 = b^2 + c^2 - 2c \cdot b_c \rightarrow 11^2 = 7^2 + 6^2 + 2 \cdot 6 \cdot b_c \rightarrow 12 \cdot b_c = 36 \rightarrow b_c = 3$$

Ответ: 3.

Список литературы:

1. Теорема Пифагора: история вопроса, доказательства, примеры практического применения [Электронный ресурс] URL: <https://blog.tutoronline.ru/teorema-pifagora>
2. Теорема Пифагора [Электронный ресурс] URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/Теорема_Пифагора
3. В.Я.Березин Журнал «Квант». Теорема Пифагора 1993г. №5



MAQSUD SHAYXZODANING SUD JARAYONI

Behruz Qo‘ziboyev Bahodir o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti Elektrotexnika va kompyuter muhandisligi
fakulteti talabasi

Dilnoza Qo‘ziboyeva Bahodir qizi

Toshkent davlat transport universiteti Transport tizimlari boshqaruvi fakulteti
talabasi

Annotatsiya: Siz ushbu maqolani o‘qish jarayonida Maqsud Shayxzodaga qo‘yilgan ayblar tufayli o‘tkazilgan sud jarayoni haqida ma’lumotlarga ega bo‘lasiz.

Kalit so‘zlar: Sud jarayoni, intizom, shukronalik, isbotlangan ayblar.

Annotation: While reading this article, you will get information about the trial of Maqsud Sheikhzadeh.

Keywords: Trial, discipline, gratitude, proven guilt.

Maqsud Shayxzoda 17-dekabrda ikki marta tergovga chaqirildi. O‘sha kunning ertasiga, 18-dekabr kuni, tergovchi mahbusga jinoyat tarkibini qayta tasniflash haqidagi qarorni ko‘rsatdi. Qarorga ko‘ra, Shayxzoda O‘zSSR Jinoyat kodeksi 66-moddasining 2-qismi va 67-moddalari bo‘yicha, ya‘ni SSSRdagi mavjud davlat tuzumiga g‘arazli munosabatda bo‘lganlik, qator yillar mobaynida o‘z davrasida sovetlarga qarshi, millatchilik targ‘ibotini olib borganlik, qator adabiy asarlarida feodal o‘tmishni ko‘kka ko‘targailik, burjua millatchilik kayfiyatini olg‘a surib, sovet voqeligini buzganlikda ayblangan edi. 1953 yil 12-14 yanvar kunlarida bo‘lib o‘tgan Toshkent viloyat sudi mahbus Shayxzoda Maqsudga tergov jarayonida qo‘yilgan va “isbotlangan ayblar”ga asoslangan holda hamda sudga chaqirilgan guvohlarning o‘z ko‘rgazmalarida qat‘iy turganlarini inobatga olib, unga 25 yillik qamoq jazosini berish va jazo muddati tugagach, uni 5 yilga saylash va saylanish huquqidan mahrum qilish, shaxsan unga tegishli mol-mulkni davlat foydasiga musodara etish haqida hukm chiqardi. Mahbusning o‘ziga qo‘yilgan barcha ayblar uydirma, guvohlarning ko‘rsatmalari esa noxolis ekanligi haqidagi arizasi mutlaqo inobatga olinmadi. “Dunyodagi eng odil va yengilmas sovet sud tizimi” yana bir bor o‘zining insonparvarlik mohiyati va qudratli kuchini namoyish etdi. Qatag‘on davrining achchiq tuzini totgan kishilar azob-uqubat lagerlaridan sog‘-omon qaytib kelganlaridan keyin ko‘rgankechirganlari to‘g‘risida bir og‘iz bo‘lsa ham gapirmay



o‘tdilar. Agar ularning aksar qismi lagerdan ozod bo‘lishlari oldida tilxat berganlari va yuraklarida qo‘rg‘oshindek o‘rnashib qolgan hadik tufayli og‘izlariga qulf solib yashagan bo‘lsalar, boshqa birlari mudhish zamonlarni eslab, yana bir bor ezilmaslik, xalq va mamlakatga yangi kuch bilan xizmat qilish uchun chekkan jabrzulmlari haqida churq etmadilar. Shayxzoda qatag‘on qurbonlarining ana shu ikkinchi guruhiga mansub edi. U na biror asarida shu haqda yozdi, na biror do‘stiga yoki yaqin qarindoshiga shu haqda so‘z ochdi. Shuning uchun ham biz uning lagerdagi hayoti to‘g‘risida biror ma‘lumotga ega emasmiz.

Bizga faqat shu narsa ma‘lumki, u hukm qonuniy kuchga kirganidan keyin Irkutsk viloyatidagi lagerlardan biriga jo‘natilgan. Irkutsk - Rossiyaning O‘rta Osiyo bilan tutashgan etaklarida, aniqrog‘i, Sharqiy Sibirning janubiy qismida joylashgan shaharlardan biri. Irkut daryosi Angaraga kelib quyiladigan yerda barpo etilgan bu shahar tarixi 1686 yildan boshlanadi. Bu shaharga borish uchun Toshkentdan Qarag‘anda, Novosibirsk, UlanUde yo‘nalishi bo‘yicha poyezdda yurgandan keyin, Mo‘g‘uliston poytaxti Ulan-Bator tomonga bir oz buriladi. Boyko‘ldan 66 km g‘arbdagi bu shahar tegrasida 1937 yilda Irkutsk viloyati tashkil etilgan. Viloyatda chuvashlar, buryatlar, evenklar va tofalar yashagan. Qatag‘on yillarida bu yerga ko‘plab ukrain, belorus va boshqa millat vakillari kelib qolgan. 50-yillar qatag‘oni arafasida yangi mehnat-tuzatuv lagerlarini barpo etish zarurati tug‘ildi. 1947 yil 18 fevralda Irkutsk viloyatining Kitoy tuman-bekati shu shahar nomi bilan atalgan mehnat-tuzatuv lageri qurildi. Tez sur‘at bilan barpo etilgan lager 1960 yilga qadar faoliyat ko‘rsatdi. Shu davrda lagerga yuborilgan 50 mingdan ziyod mahbuslar Sibirning uzoq davom etuvchi ayozli qishida neftni qayta ishlash kombinati, alebastr, g‘isht va non zavodlari, beton kombinati, muzlatgich, tikuv va mebel fabrikalari, Aloqa minisrligining maxsus radiomarkazi, shosse va temir yo‘l, uy-joy qurilishlari va daraxt kesish ishlarida ishladilar. Barhayot zamondoshlarning shahodat berishlariga ko‘ra, Shayxzoda bilan birga O‘zbekiston Telegraf agentligining mas‘ul xodimi, tarjimon va jurnalist Nasibulla Habibullayev Irkutskdagi lagerga etap qilingan. Habibulla akaning farzandi, tarix fanlari doktori Nozim Habibullayevning aytishicha, ular poyezdda borayotgan paytlarida yonlaridagi ayblov xulosasida yozilgan “58-modda” degan so‘zdagi 58 raqamining oldiga 1 raqamini qo‘shib qo‘yganlar. Ana shu ayblov xulosasi asosida ularni dastlab siyosiy mahbuslar emas, balki o‘g‘ri va kallakesarlar lageriga joylashtirishgan. Ammo oradan 10-15 kun o‘tgach, siyosiy mahbuslar lageriga yetib kelmagan o‘zbeklarni axtarish ishlari boshlangan va ular topilib, maslakdoshlari yotgan boshqa lagerga olib kelingan. Ma‘lum bo‘lishicha, bu lagerda mahbuslarga beriladigan ovqat o‘g‘rilarga atalgan



ovqatga nisbatan ancha sifatsiz va to'yimsiz ekan. Bu holni ko'rgan Shayxzoda: "Ajabo, sovet davlatida to'g'rilar emas, o'g'rilar izzat-ikromda yashashadi-ya! Qani endi biror hafta bizga ham o'g'rilarlardek munosabatda bo'lishsa!" - deb hayratlangan ekan. Shayxzoda so'nggi yillarda ro'y bergan voqealarni ko'z oldidan o'tkazar ekan, Hamletning o'z tarjimasidagi monologini damo-dam yodga olar eli: Olam qancha past ekan, ey Xudovandim! Bu olamga qarasang ko'ngling ayniydi! Bu dunyo Hechiston yo Vahshatzordir, Yo axlatga to'lgan biyobondir u... Bu satrlar shoir xotirasida jonlanar ekan, u olis zamonlarda ham inson qiyofasidagi razil mahluqlar bo'lgani va ulardan nafaqat Hamlet, balki Shekspirning o'zi ham ozor chekkan bo'lishi mumkinligini o'ylab, bir oz taskin topdi. Uning nazarida, vaqt o'tishi bilan shayton izmidagi olam fuqarolari ozayish o'rniga kundun-kunga ko'payib, kuchayib, hatto quturib borayotgandek edi. Shunday kimsalardan lagerning ham xoli emasligi unga, ayniqsa, ta'sir etdi. Ammo "axlat bilan to'la biyobon"ning Shekspir davridan beri dengiz yanglig' chayqalib, minglab asl insonlarni o'z girdobiga tortayotganini eslab, o'ksindi u... Shayxzodaning qaysi qurilishda ishlagani, nima bilan shug'ullangani ma'lum emas. Ammo bizga shu narsa ayonki, tergov paytidagi qiynoqlarda Shayxzodaning ko'zoynagi sinib chil-chil bo'lganligi sababli u lagerda ko'zoynaksiz ishlashga ko'nikkan va Sibirning toza havosida uning ko'zlari hatto ziyraklashgan. Ammo Ollohning inoyati bilan favqulodda katta iste'dodga ega bo'lgan, o'z asarlari bilan o'zbek madaniyati va ilm-fani taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan shoirning ajal tegirmoniga tashlanishi, Sovet davlatining dahshatli lagerlaridan birida qora mehnat bilan shug'ullanishi chidash mumkin bo'lmagan adolatsizlik edi. U Cho'lpon va Fitrat singari vatandoshlarining fojiali taqdirini o'z ko'zi bilan ko'rgan bo'lsa-da, adolat qilichining bu darajada egilishi bilan murosa qila olmadi. Shayxzoda o'z qismatini, sodir bo'lgan vaziyatni o'zgartirish uchun qabih kimsalarning hasad va tuhmatlari orqasida qamalganini asoslab, Moskvadagi oliy darajali idoralarga arizalar yozdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Naim Karimov "Maqsud Shayxzoda" tarixiy-bibliografik roman.
2. Maqsud Shayxzoda haqidagi maqolalar to'plami.



NIKOH SHARTNOMASI

M.Mirzayeva

Angren shahar 2-sonli kasb-hunar maktabi huquq fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oila –jamiyatning asosiy bo'g'ini ekanligi, har bir jamiyatda bo'layotgan og'riqli masalalardan biri oila mustahkamligini ta'minlashdagi muammolar, sabablar va oqibatlar hamda bertaraf etish bo'yicha taklif va mulohazalar keltirib o'tilgan, o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlashda nikoh shartnomasini o'rni haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim va tarbiya, huquqiy ong, nikoh shartnomasi, fuqarolik kodeksi, oila kodeksi, mulk tushunchasi

Mamlakatimizning kelajagi bo'lmish yoshlarimizni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga bugungi ham o'ziga xos tarzda, zamonaviy usullar asosida yondashilmoqda, ularning barcha huquq va erkinliklari, imkoniyat va manfaatlarini himoya qilishda tashkiliy-huquqiy asoslar zamon bilan hamnafas takomillashib bormoqda. Kasb-hunar maktablarida yoshlarning bilim olishi bilan bir qatorda kasbga o'rgatilayotganligi O'zbekistonning bugun yoshlarga berayotgan ta'lim-tarbiya va ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, e'tiborning amaliy ifodasidir. O'sib kelayotgan yosh avlodni kelajak hayotga tarbiyalash, kasb-hunarga o'rgatish va huquqiy ongini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish kerak.

“Ta'lim to'g'risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi qonunlardan ko'zlangan asosiy maqsad – ta'lim-tarbiya ishlarini birgalikda to'g'ri yo'lga qo'yish, jahon andozalari talablariga javob beradigan mutaxassis-kadrlarni tayyorlashdan iborat. Yosh avlodga zamonaviy texnologiyalar asosini o'rgatish, ularni ishlab chiqarish sohalariga tayyorlash kasb-hunar maktablarining asosiy vazifasidir. Bu vazifani bajarishda huquq fani darslarining alohida o'rni bor. Kasb-hunar maktablarida yoshlarning huquq fanini o'qitishda tarixiy, huquqiy, ma'naviy, madaniy va etnik xususiyatlarini yetarlicha ifodalash maqsadida o'quv dasturi ishlab chiqilgan.

O'quvchi yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, hayotda o'z o'rnini topishi va xalqimiz, yurtimiz ravnaqi uchun xizmat qiladigan fidoiy farzadlari bo'lishlari uchun huquq fanining har bir mavzusini o'qitishga alohida e'tibor qaratish kerak.



Baxtli oila qurish, shirindan-shakar farzandlarning ota-onasi bo'lish har bir yigit-qizning orzusi. Ana shu orzuni amalga oshirish uchun huquqiy bilimga ega bo'lish juda muhim hisoblanadi. Ammo so'nggi vaqtlarda oiladek muqaddas tushunchaga befarqlik, oilaviy hayot haqida to'liq tushunchaga ega emaslik oqibatida ajrashish holatlari tobora ko'paymoqda. Buning oldini olishning iloji bor, ammo ko'pchilik yoshlarda huquqiy bilim yetarli bo'lmagani, o'z haq-huquqini bilmasligi natijasida imkoniyatlar foydalanilmay qolib ketaveradi. Nikoh shartnomasi mavzusida oila qurish ostonasida turgan o'g'il-qizlarimiz uchun tegishli tushunchalar, kim qanday huquq va majburiyatlarga ega ekanligi o'rgatiladi.

Milliy mentalitetimizga ko'ra, oila - muqaddas va bu borada jahon hamjamiyatida shakllangan an'analar erish tuyulishi rost. Ammo bugungi globallashuv davrida, dunyo xalqlari hayot tarzi, manfaatlarini o'zaro integratsiya bo'layotgan hozirgi davrda bu masalaga bee'tibor bo'lish ham noo'rindir.

Nikoh bu nikoh yoshiga yetgan (18 yosh) yigit va qizning o'z arizalariga asosan Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida ro'yxatga olinib, oila qurish maqsadida er-xotin bo'lib yashash to'g'risidagi kelishuvdir. Ular o'rtasida yozma shaklda tuziladigan Nikoh shartnomasi notarial tartibda tasdiqlanuvchi hujjat hisoblanadi. Nikoh shartnomasi haqidagi huquqiy bilim bizda to'liq rivojlangani yo'q. Bizga ma'limki "Nikoh shartnomasi" oila qonunchiligiga kiritilgan yangi tushuncha ekanligini va milliy qonunchiligimizga kiritilgan yangiliklarning mazmuni va ahamiyati o'z vaqtida ommaga etkazishning ahvoli etarli darajada emasligini sabab sifatida keltirish mumkin. Bundan tashqari fuqarolarimizda huquqiy bilim va savodxonlikni yuksaltirish hamda qabul qilinayotgan qonunlarga munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirish ham zarur.

To'yga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan, agar nikoh davrida tuzilsa, notarial tasdiqlangan davrdan boshlab kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan Oila kodeksining "Er va xotin mol-mulkingining shartnomaviy tartibi" deb nomlangan VI bobi, 29-36-moddalari ilk marotaba milliy qonunchiligimizga "Nikoh shartnomasi" tushunchasini olib kirdi. Unga ko'ra, nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuv nikoh shartnomasi hisoblanadi

Nikoh shartnomasi odatda G'arbiy Yevropa davlatlari, AQSH, Kanadada ommalashgan. Dastlab Gretsiya va Rimda kelib chiqqan ushbu an'ana erkak va ayol



nikoh tuzishidan avval o‘zaro munosabatlari - mulk va meros masalalari haqida kelishuvni rasmiylashtirishni nazarda tutadi.

Mamlakatimizda 1998-yil 1-sentyabrgacha amal qilgan Nikoh va oila kodeksida er-xotin mulkining faqat qonuniy jihati belgilangan edi. Oila mulkining tarkibi esa asosan mebel, kiyim-kechaklardan iborat bo‘lgani, ya’ni bo‘linadigan narsa kamligi bois, mulkiy munosabatlarni boshqacha tarzda tartibga solishga zarurat yo‘q deb hisoblangan. Ammo xususiy mulk munosabatlari rivojlanishi bilan er-xotin mulki tarkibi o‘zgardi. Alohida mulki bo‘lgan er yoki xotinning o‘z mulkini o‘zi tasarruf etishni hohlashi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan yoki uy ishlari bilan band bo‘lib, mustaqil daromadga ega bo‘lmagan er-xotin manfaatlarini ham hisobga olish zarurlari nikoh shartnomasining qonunga kiritilishini taqozo etdi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oilaning davlat va jamiyat muhofazasida ekanligi nazarda tutilgan bo‘lsa, oila a’zolarining shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlari, nikoh shartnomasiga oid qoidalar Oila kodeksida belgilangan.

Nikoh shartnomasi nikohlanuvchi shaxslarning, er va xotinning nikohda bo‘lgan davrida va nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvidir (OKning 29-moddasi). Endilikda qonuniy (rasmiy) mulk tartibi bilan birga mulkning shartnomaviy tartibiga ham o‘rin berildi.

Alohida egalik qilish tartibi er-xotinning barcha mulkiga, uning ayrim turlariga, er-xotindan har birining mulkiga nisbatan belgilanishi mumkin. Fuqarolik-huquqiy shartnomalardan biri sifatida nikoh shartnomasi shakli, mazmuni jihatidan Fuqarolik kodeksining bitimlarga qo‘yiladigan umumiy talablariga javob berishi, yozma tarzda tuzilib, notarial tartibda tasdiqlanishi (OKning 30-moddasi) lozim.

Shartnoma nikoh qayd etilishidan avval yoki qayd etilganidan keyin - istalgan vaqtda tuzilishi mumkin; nikohgacha tuzilgan bo‘lsa, nikoh davlat ro‘yxatiga olingan kundan, nikohdagi er-xotin tomonidan tuzilgan bo‘lsa, shartnoma notarial tasdiqlangan kundan kuchga kiradi. Nikoh shartnomasining afzalligi shundaki, u mulkiy munosabatlarni tartibga solish orqali oilani mustahkamlaydi, er-xotinni bir-biriga tegishli mulkdan to‘g‘ri foydalanish va yaxshi saqlashga, mulkiy majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishga undaydi.

Bugun yurtimizda, afsuski, oilaviy ajrimlar soni oshib borayotgani achchiq haqiqatdir. Mana shunday ajrimlarda sud orqali mulkni bo‘lishishdek ko‘ngilsiz tortishuvlarni boshidan kechirganlar nikoh shartnomasi zarurligini tasdiqlamoqdalar. Bundan ayon bo‘ladiki, jamiyatimiz uchun nikoh shartnomasi institutini keng tatbiq qilish ayni zarurat. Zotan, nikoh shartnomasi er va xotinning oila oldidagi qonuniy



burchi hamda mas'uliyatini eslatib turadi. Er-xotin o'zaro burch va mas'uliyatni unutmasa, bu oila ajrim yoqasiga kelmaydi. Nikoh erkak va ayol o'rtasidagi muqaddas rishta bo'lib, nikoh shartnomasi esa muqaddas nikohning bardavomligini ta'minlashga, er va xotinning mulkiy huquq hamda manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan o'zaro kelishuvdir. Zero bu kelishuv er va xotinning boshqa shaxslarning aralashuvisiz o'zaro xohish irodasiga asoslangandir.

O'quvchi yoshlarga bu bilimlarni o'rgatish orqali kelajakda oilalar, buzilishi, farzandlar yetim qolishi, oilada notinchliklar oldini olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi-2003y
2. Ozbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi
3. O'zbekiston respublikasi oila kodeksi
4. Otaxo'jayev F.M, Yuldasheva Sh.M Oila huquqi-Toshkent –Cho'lpon 2003
5. Mo'minova Z.M "Nikoh shartnomasi"-Yangi asr avlodi-2004 yil



MAQSUD SHAYXZODANING BOLALIK YILLARI

Behruz Qo‘ziboyev Bahodir o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti Elektrotexnika va kompyuter muhandisligi
fakulteti talabasi

Dilnoza Qo‘ziboyeva Bahodir qizi

Toshkent davlat transport universiteti Transport tizimlari boshqaruvi fakulteti
talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning bolalik yillari va maktab davrlari haqida to‘liq bayon qilingan. Maqsud Shayxzodaning yoshlikdagi intiluvchanliklari haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: vatanparvar, xushmuomala, izlanuvchan, o‘zbek she‘riyati, jo‘shqin shoir.

Annotation: This article describes the childhood and school years of Maqsud Sheikhzade. Information is given about Maqsud Sheikhzadeh's aspirations in his youth.

Keywords: patriot, polite, inquisitive, Uzbek poetry, passionate poet.

Odatda inson bir joyda tug‘ilib, shu joyda yashaydi. Va shu joyda abadiy orom og‘ushiga kiradi. Ammo hayotning bu temir qonuni hamisha ham o‘z kuchini saqlab qololmaydi. Qanchadan-qancha kishilar zamona zayli bilan kindik qoni to‘kilgan vatanlarini tark etib, boshqa yurtlardan panoz izlashga majbur bo‘ladilar. Bunday taqdir egalarining hammasini ham ikkinchi vatanlarida halol xizmat qilib, ildiz otib, baxtli-saodatli umr kechirganlar, deb bo‘lmaydi. Bordi-yu, Taqdir hazratlari ularga kulib boqsa, bu vatan bir umrga ularning va farzandlarining asl vatanlari bo‘lib qoladi. Maqsud Shayxzodaning tarixiy vatani - Ozarbayjon. Taqdir shamoli Shayxzodani Navoiy va Bobur vataniga uchirib kelganida, u, shubhasiz, ko‘p o‘tmay ota-onam bag‘riga qaytaman, deb o‘ylagan. O‘z navbatida, ota-onasi ham to‘ng‘ich farzandlarining ozar tuprog‘iga qaytib kelib, xuddi o‘zlaridek, el-yurt saodati yo‘lida mehnat qilishiga ishongan. Lekin umid va xohish boshqa narsa-yu, taqdir boshqadir. Odam zoti borki, taqdiri azal-avvaldan chizib beriladi. Hech bir inson o‘z taqdirini o‘zgartira olmaydi. U faqat shu taqdirning harakati asnosida ayrim xatti-harakatlariga tahrir kiritish imkoniyatiga ega, xolos. Taqdir Shayxzodani Xazor dengizi osha olib o‘tib, ko‘hna Toshkentning qaynoq bag‘riga bir umrga olib kelib tashlagan edi. U shu



yerda oila qurdi. Shu yerda o‘zbek xalqi, xuddiozarbayjon xalqi singari, bag‘ri keng, mehr-oqibatli, mehnatkash xalq ekanligini ko‘rdi. Shu yerda o‘zbek tilini mukammal egallab, o‘zbek adibi bo‘ldi, zabardast shoir, barkamol dramaturg va mutafakkir olim sifatida o‘zbek xalqining qalbini zabt etdi. Uning nomi o‘zbek adabiyoti tarixiga oltin harflar bilan yozildi.

Ammo bu hol uning o‘z vatanini, ota-onasi, qarindoshurug‘lari, vatandoshlarini bir daqiqaga bo‘lsa ham unutganini mutlaqo anglatmaydi. Shoirning ulkan qalbida uning har ikkala xalqqa bo‘lgan muhabbati yonma-yon yashadi. U o‘zbek she‘riyatining durdonalaridan biri - “Toshkentnoma” dostonida ozar diyoriga bo‘lgan muhabbatini ifodalab, bunday yozgan edi: Umrim bino bo‘ldi Ozarbayjonda, Kechdi bolaligim u gul makonda. Nizomiy vatani, Ganja o‘lkasi O‘pkamga to‘ldirdi she‘r havosin. Kur nahrin muloyim, tinch muzikasi Ko‘nglimda uyg‘otdi kuylash havasin. Ana shunday shayxona jo‘shqin satrlardan keyin sekin-asta Xazor dengizidan o‘tib, shoir tug‘ilgan “gul makon” sari yaqinlashib borsak. Ozarboyjon deganda har bir kishining xayoliga eng avvalo “qora marvaridlar” shahri - Boku keladi. Agar qardosh yurtning shu poytaxtidan Qora dengiz sohillaridagi Botumi shahrini qora qilib yo‘lga chiqib borsak, dastlab Sumgait, so‘ngra Shemaxa va Geokchay shaharlari keladi. Ana shu Geokchay bilan Ujar o‘rtasida joylashgan shaharcha Agdash, o‘zbekcha aytganimizda, Oqtosh deb ataladi. Ozar va o‘zbek xalqlarini bir-biriga yana ham jipslashtirib, ular madaniyati o‘rtasida oltin ko‘prik bo‘lib xizmat qilgan Maqsud Shayxzoda 1908 yil 7 noyabrda, aksar manbalarda aytilishicha, shu shaharchada dunyoga kelgan. Maqsudning ota-bobosi aslida Ozarbayjonning Gruziyaga chegaradosh viloyatidan bo‘lib, Qozox shaharchasining Salohli tumani ularning tarixiy vatani hisoblangan. Shoirning otasi Ma’sumbek 1903 yilda Tiflisdagi tibbiyot maktabini tugatganidan keyin ota-onasining issiq bag‘rida yashashdan ko‘ra, turli-tuman xastaliklar tarqalgan, uning tibbiy bilimiga muhtoj bo‘lgan joylardan biri – Oqtoshga kelib, shu yerning aholisiga xizmat qilishni o‘zining shifokorlik burchi, deb hisoblagan. Shu yerda uy-joy qurib, palak yozgan. Ma’sumbek o‘tgan asr boshlarida yetishib chiqqan ozarboyjon ziyolilarining dastlabki vakillaridan biri bo‘lib, bezgak xastaligiga chalingan aholini yarim asr mobaynida davolab kelgan. U Ozarbayjon tibbiyoti tarixida o‘z hayotini uzoq yillar davomida qanchadan-qancha kishilarning yostig‘ini quritgan shu yovuz xastalikka qarshi kurashga bag‘ishlagan fidoyi shifokorlardan biri bo‘lib qolgan. Adabiyotshunos To‘xtasin Jalolov Shayxzoda bilan qilgan suhbatlari asosida yozgan “Yashasin tabassum” sarlavhali maqolasida shoirning otasi to‘g‘risida quyidagi ma’lumotni bergan edi: “Uning otasi Ma’sumbek o‘z zamonasining taraqqiyparvar



ziyolisi bo‘lib, meditsina ilmlaridan tashqari, san‘at, adabiyot, tarix va falsafa ilmlari bilan qiziqardi. Ma‘sumbekning uyi o‘sha zamonda Oqtosh shahrining madaniy, adabiy markazi bo‘lib, shaharning eng ilg‘or ziyolilari uning uyiga yig‘ilib, san‘at, adabiyot, siyosat va falsafadan munozara va mubohasa qilishardi. Binobarin, bu adabiy muhit uchun Pushkin va Lermontov, Shekspir va Balzak, Firdavsiy va Xayyom, Nizomiy va Navoiy asarlari begona emas edi. Bo‘lajak shoir – yosh Maqsud bu adabiy munozaralardan ko‘p bahra topib, shoh asarlarning jozibali ohangi va sehri ostida yashadi”.

Shoirning onasi Fotimaxonim ham Tiflisdagi xotin-qizlar gimnaziyasini tugatib, zamonaviy ilm-fan asoslarini egallagan, turmush o‘rtog‘i singari o‘tgan asr boshlarida shakllangan ozarbayjon xotin-qizlarining peshqadam vakilasi edi. U 20-yillarida Oqtoshda xotin-qizlar sho‘basining mudiri bo‘lib ishlagan chog‘ida tengdoshlarining yangi imloda xat-savod chiqarishi va xotin-qizlar uchun zarur turli kasb-hunarlarini egallashida faollik ko‘rsatgan. Ana shu ota-onadan besh farzand tug‘ildi. Bular - Maqsud, Safura, Fuod, Nozim va Saidalar. Ma‘sumbek bilan Fotimaxonim nafaqat o‘z farzandlari, balki yaqin jigarlarining ham ilm-ma‘rifatli kishilar bo‘lib ulg‘ayishlari uchun jon kuydirib, ikki jiyani - ukasining bir qiz va bir o‘g‘lini ham o‘z bag‘riga olib, ularga yaxshi tarbiya bergan. Shayxzodaning hozirda Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot instituti arxivida saqlanayotgan hujjatlari orasida Saidaxonimning akasi haqidagi xotiralari ham bor. Shu xotiralarda yozilishicha, Fotimaxonimda til o‘rganish qobiliyati kuchli bo‘lib, u ona tilidan tashqari, rus, gruzin va turk tillarini ham yaxshi bilgan. Toshkentga – to‘ng‘ich farzandi huzuriga borib-kelib yurgan paytlarida esa o‘zbek tilini ham o‘rgangan. Umrining ma‘no va mazmunini xalq va oila saodati uchun kurashda ko‘rgan va shu ezgu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatgan Fotimaxonim sevimli farzandi Maqsud Shayxzodaning vafotidan keyin kuyib-yonib, 1970 yilda vafot etgan. Modomiki, bahs Saidaxonimning xotiralari bilan bog‘langan ekan, shu yerda uning akalari haqidagi quyidagi ma‘lumotini ham keltirish joiz: “Otamiz Ma‘sumbek va onamiz Fotimaxonim bizni ulg‘aytirib, qanot baxsh etdi. Hammamiz har tarafga yo‘l oldik. Maqsud o‘zbek shoiri bo‘ldi. Fuod Odessada professor bo‘lib xizmat qildi... Maqsudning menga aytishicha, uning ismi “xushbaxt” ma‘nosini anglatgan. Ma‘lumki, inson hamma vaqt xushbaxtlikka, baxt-saodatga intilib yashaydi. Ammo unga hech qachon erisha olmaydi”. Saidaxonimning yurakni ezadigan bu so‘zlaridan keyin shoirning bolalik kezlariga bir nazar tashlasak. Avvalo shuni qayd etish joizki, Shayxzoda turli yillarda yozgan tarjimai hollarida o‘z hayoti faktlarini turlicha talqin etadi. Shulardan biri “Mening tarjimai holim” deb nomlangan rus tilidagi sanasiz



bitik bo‘lib, shoir unda, jumladan, bunday qimmatli ma‘lumotni bergan: “Men, Sheyxizoda1 Maqsud 1908 yili Tiflis shahrida tug‘ildim. Otam Tiflisdagi feldsherlik maktabini tugatgan feldsher edi. U Qozox uyezdidagi o‘rtahol dehqon oilasida tug‘ilgan bo‘lib, shaxsiy g‘ayrat-shijoati va baxtli tasodif tufayli ta‘lim olgan. (U 18 yoshida alifboni o‘rganishdan boshlagan.) 1908 yildan boshlab Oqtosh shahri (sobiq Yelizavetopol guberniyasining sobiq Aresh uyezdi), hozir da Ozarbayjon sovet respublikasi tumanida uzluksiz ishlagan. U eng yaxshi jamoatchi medik bo‘lgani tufayli 1924 yilda (46 yoshli keksalik paytida) tibbiy ta‘limini yakunlash uchun Moskvaga borgan. U 1928 yilda 2-Moskva Davlat universitetining tibbiyot fakultetini tugatib, hozirgi vaqtda Oqtoshdagi shahar ambulatoriyasida bosh shifokor bo‘lib ishlamoqda. Onam ham Qozox uyezdli dehqonlardan bo‘lib, Oqtoshda paranjisini birinchi bo‘lib tashlagan va uyezd xotin-qizlari harakatini birinchi bo‘lib boshlab bergan. U OzK(b)P uyezd komitetida xotin-qizlar bo‘limi mudiri bo‘lib xizmat qilgan. Men ilk ma‘lumotimni turk2 tilidagi 1-bosqich shahar maktabida oldim, ikki yildan keyin (1919 yili) esa, o‘sha yerdan yuqori boshlang‘ich maktabga o‘tdim...” Shayxzodaning bu so‘zlaridan ayon bo‘lishicha, uning ota-onasi Tiflisdagi o‘qib yurgan paytlarida turmush qurishgan va Maqsud eski hisob bilan 1908 yil 25 oktyabr, ya‘ni 7 noyabr kuni Gruziya poytaxtida tug‘ilgan. Shu voqeadan keyin ko‘p o‘tmay, ular Oqtosh shahriga ko‘chib kelganlar. Ozarboyjon va o‘zbek xalqlari shoirining Tiflisdagi tug‘ilgani, g‘alat hodisalar jumlasidan bo‘lganligi sababli, Shayxzoda Oqtoshni tug‘ilgan vatani, deb hisoblagan. Otasi Ma‘sumbek esa Tbilisi (Tiflis) da chindan ham feldsherlik maktabini tugatgan. Ammo Oqtoshda yagona malakali shifokor bo‘lganligi sababli aholini bezgak xastaligidan davolash ustida ko‘p jon kuydirgan. Shunday qilib, Maqsud 1917 yilda 1-bosqich shahar maktabiga o‘qishga boradi. Shayxzoda 1966 yilda ozarbayjon adabiyotshunosi Jamol Muharramliga yo‘llagan xatida “ilk muallimi” Muxtor Afandizoda bo‘lganini aytadi. Shoirning ozarboyjonlik boshqa bir tadqiqotchisi Xalil Rizaning “Maqsud Shayxzodaning adabiy ijodi” (Boku, 1980) deb atalgan kitobida esa, Muxtor Afandizoda va Shayxzodaning o‘quvchilik yillariga oid bunday ma‘lumot berilgan: “Hozirda Bokuda yashayotgan Muxtor afandi inqilobdan avval Ozarboyjon ziyolilarining bir guruhini tarbiyalab yetishtirish uchun zahmat chekkan, universitetning sharq fakultetida uzoq muddat arab tilidan dars bergan, “Miftoh ul-lisonil arabiy”, “Arab tilining ochqichi” degan darsliklar yozgan keksa pedagog va muallimdir. 1904 yilda Quboda “usuli savtiya”, 1906 yilda Oqtoshda “dorul urfon” (bilim yurti) ni va keyinroq “rushdiya” maktablari (ibtidoiy maktab bilan o‘rta maktab orasida bo‘lgan bilim o‘chog‘i) ni ochgan. Muxtor afandining aytishicha, Maqsud, yanglishmasam,



bizning maktabimizga 1915 yilda kelgan. Biz kimyodan boshqa qariyb barcha fanlarni o'rgatar edik. Grammatikani uchinchi sinfdan boshlardik. Maqsudning birinchi sinfga kelgani yodimda qolmagan, ammo uning yodida bor ekan. Ko'rishganimizda menga xotirlatdi: - Birinchi kuni meni doskaga chiqardingiz. Men "alif", "be" harflarini yozdim. Siz "Voy, nor o'g'li, nor-ey", - dedingiz, - dedi u. Maktabimiz kuchli shogirdlarni yetishtirgan. Gori seminariysidan ham kuchli shogirdlar chiqqan. Ammo u yerni bitirib kelgan taniqli pedagog Mehdibey Xajinskiy va Zakriyabey mening bir darsimda ishtirok etib, hayron qolganlarini bildirganlar. Ularni hayratlantirgan narsa maktabga ilk bor kelgan bolaning yozuv doskasida harf yozishni eplay olgani edi". To'xtasin Jalolov Shayxzoda tahsil ola boshlagan mazkur maktabni "Ahmadiya" maktabi deb tilga olgan bo'lsa-da, u o'sha yillarda Ozarbayjon va O'zbekistonda keng tarqalgan "rushdiya" maktablaridan biri edi. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ochilgan "rushdiya", "usuli savtiya" va "dorul urfon" maktablarida, Muxtor Afandizoda aytganidek, qariyb barcha dunyoviy fanlar o'qitilgan. Shu bilan birga jadidlar bu maktablarda bolalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor berganlar. Dastlab chor, keyin sovet hokimiyatlari davrida milliy xalqlar dini, urf-odatlarini, tarixi va madaniyatining payxon qilinishi ulardan bolalarni millatparvarlik ruhida tarbiyalashni taqozo etgan. Shayxzoda shu maktablarda dunyoviy bilim olish bilan birga millatparvarlik ruhida ham tarbiyalana boshlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Naim Karimov "Maqsud Shayxzoda" tarixiy-bibliografik roman.
2. Maqsud Shayxzoda haqidagi maqolalar to'plami.



SPECIFIC CHARACTERISTICS AND STAGES OF CREATING MODERN ELECTRONIC EDUCATIONAL MATERIALS BASE OF BIOLOGICAL SCIENCE TEACHING

Khilola Tuychiyeva Zokirjon qizi

Teacher of Fergana State University, Correspondence course

tuychiyevafdu1993@gmail.com

Annotation: Biology is the science of nature, and each of its departments (botany, zoology, man and his health, etc.) is distinguished by a large number of images and diagrams representing the structure, life cycles and processes of organisms. In order to ensure the effectiveness of the educational process, it is recommended to use new pedagogical technologies in harmony with ICT.

This article provides information about the specific features and stages of creating a modern electronic educational materials base for teaching biology.

Keywords: botany, zoology, virtual presentations, pedagogical technology, information communication technology, game technologies, problem-based learning technology, project method technology, interactive technologies.

When studying biology with the help of a textbook with one-dimensional images, it is much more difficult to master the structure of the diversity of flora and fauna and the functioning of organs. On the other hand, the virtual presentation (presentation) or animations showing the described morphology of plants and animals, the activity of their organs, will have a strong place in the memory of students. As you know, biology is the science of nature, and each of its departments (botany, zoology, man and his health, etc.) is characterized by a large number of images and diagrams representing the structure, life cycles and processes of organisms. . It is natural that the student can understand all this from a textbook on the basis of traditional educational technologies. In order to ensure the effectiveness of this process, it is necessary to use new pedagogical technologies in harmony with ICT. In this process, visual images, animation or virtual presentations play a large role. All this is one of the urgent tasks in the field of education. Pupils should not only acquire theoretical knowledge of biology, but also develop practical skills in them.

In this regard, the following tasks are required.

- Collection of materials, color photos, videos, animations based on the latest information about science.

- Preparation of comments, annotations, diagrams, column presentations on photos, videos, animations and photos and videos taken from nature and in laboratory conditions in Ms Word, Ms Excel programs.



- Preparation of high-quality images, animations using Photoshop, Flash programs.
- Preparation of presentations (presentation) on topics using the Power Point program. Creating a database of modern electronic teaching materials for theoretical and practical training in biology according to the model program.

This process is carried out in the following sequence of steps.

Stage 1. Collecting materials, color photos, videos, animations based on the latest scientific information using the Internet system and available information resources. Taking photos and videos of experiments on certain topics from nature and in laboratory conditions. Preparation of comments and annotations to photos, videos, animations and photos and videos taken from nature and laboratory conditions using Ms Word. Using Ms Excel program, diagrams and columnar presentations on animal systematics, life cycle, relationships with the environment are prepared.

Stage 2. Preparation of high-quality images using Photoshop software, animations based on Flash software based on photos, videos, animations and photos and videos taken from nature and in laboratory conditions.

Stage 3. Preparation of presentations (presentations) on topics using the Power Point program using available materials and photos developed in Photoshop or animations created with Flash.

All of the above are used to create an educational database for theoretical and practical lessons in biology and use the latest information on science, virtual presentations (presentation), animations and videos, comprehensive knowledge and experience of students. enables them to acquire skills.

To date, many pedagogical technologies have been created, and pedagogic scientists classify them in different ways. Russian scientist G.K., who made a great contribution to the development of the theory of pedagogical technologies. Among pedagogical technologies, Selevko singles out educational technologies based on the growth and intensification of the cognitive activity of learners and includes the following educational technologies in this category:

1. Game technologies.
2. Problem-based educational technology.
3. Project method technology.
4. Interactive technologies.

Interactive technologies mean education that provides active interaction between the learner and the teacher (trainer) in the pedagogical process.

V.V. Guzeev divides information exchange into three types, namely:

Extractive mode: the flow of information is directed from the subject to the object, but does not penetrate "inside" the object (is not absorbed into the mind, does not affect emotions enough). The student is a passive participant in this. This mode is characteristic of lecture, traditional teaching, and does not form activity in the learner.



Intraactive mode: the flow of information is directed to a student or a group of students and takes place "inside" them, increasing their level of mental activity. This mode is typical of educational technologies based on independent activity.

Interactive mode (interactive): in this, the flow of information penetrates the mind of the student and encourages him to be active, creating a return flow of information (from the student to the teacher). In this way, the flow of information regularly changes its direction.

The main goals of interactive technologies:

- activation of mental processes of students;
- achieving internal dialogue in the student;
- ensuring that information is understandable;
- individualization of pedagogical cooperation;
- putting the student in the position of an educational subject;
- the requirements are to achieve the establishment of bilateral relations.

In the educational process based on interactive technology, the main task of the teacher is to direct and support the process of information exchange. For this, the teacher does the following:

- identifies different attitudes and opinions about the studied fact and event;
- activates the personal experience of the participants, their previously formed knowledge and imagination;
- uses methods and forms that ensure their activity;
- connects theory and practice;
- creates pedagogical situations that encourage participants to exchange experiences;
- ensures that the participants understand each other;
- encourages creativity in participants.

With the widespread introduction of information and communication technologies into the educational system and the introduction of new pedagogical technologies, creative activity in the "student-teacher" system has risen to a higher level, as a result, the student has become an active participant in the educational process. Interactive methods of new pedagogical technologies primarily rely on the mental and practical activity of the student. This, in turn, requires knowledge and experience from the teacher.

References:

1. Avliyakov N.X., Musayeva N.N., *Pedagogik texnologiya* // T.: Tafakkur Bo'stoni – 2012. - 207 b.
2. *Axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida biologiyani o'qitish, O'qituvchilar uchun amaliy qo'llanma* // T.: Vektor-press. 2010. - 112 b.



3. Abdulazizovna, K. B., & Dilshodakhon, K. (2022). The significance of mathematical knowledge in solving problems in biology. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(3), 93-99.

4. Каюмова, Ё. К., Мухамедиева, И. Б. К., Гофурова, О. М., & Туйчиева, Х. З. К. (2021). ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ВАЛЕОЛОГИИ. *Вестник науки и образования*, (9-2 (112)), 16-20.

5. Abdulazizovna, K. B., & Abdunabiyevna, Q. D. (2022). Information technologies as a step to the development of society. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(3), 73-77.

6. Abdulazizovna, K. B., & Abdunabiyevna, Q. D. (2022). Timely implementation of personal education measures in the context of globalization. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(3), 87-92.

7. Barnogul, K., & Khilola, T. (2022). The essence of the biological education process, teaching printouts and legislation. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(4), 129-133.

8. Tuychiyeva, X. (2023). YAPON SAFORASI (SOPHORA JAPONICA L) NING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(8).

9. kizi Tuychiyeva, X. Z., & Turdibekov, M. (2022). BIOECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SOPHORA JAPONICA. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 146-151.

10. Abdurahim, N. (2023). The Technology of Growing Sophora Japonica L. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(5), 128-133.

11. Muhiddinov, A., & qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023). JISMONIY RIVOJLANISH SOG 'LIQNI SALASH HOLATINI BAHOLASHDAGI O 'RNI. *GOLDEN BRAIN*, 1(4), 83-87.

12. qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023). O 'SIMLIKLARNI ZARARKUNANDA HASHAROTLARDAN HIMOYA QILISH USULLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 33-39.

13. qizi Tuychiyeva, X. Z., & Turdibekov, M. (2022, December). THE ECOSYSTEM OF INSECTS. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 19, pp. 110-113).



CONTENTS

No	Authors and topics of the article	Pages
1	Makhbuba Mamajonova BASIC PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF READING AND LISTENING	4 - 8
2	Alisher Ostanaqulov Abdurashidovich Shahlo Esonova Abdimurot qizi SOLIQ SIYOSATIDAGI O'ZGARISHLAR	9 - 14
3	Бурцева Александра Васильевна ПРИМЕНЕНИЕ НА УРОКАХ БИОЛОГИИ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВИДЕ РАБОЧИХ ТЕТРАДЕЙ	15 - 17
4	Ma'rifat Umurova Yoshiyevna UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA MADANIYATI FANINING O'QITISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	18 - 26
5	Марина Саурбаева Мирзатоевна ВИДЫ ЭЛЕКТРОТЕХНИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛОВ	27 - 28
6	Malika Mirzaeva Mutalovna Maxprat Qayumova Voxidjon qizi Nafisa Ibragimova Akbaraliyevna MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLA SHAXSIGA YANGICHA YONDASHUV	29 - 33
7	Behruz Qo'ziboyev Bahodir o'g'li Dilnoza Qo'ziboyeva Bahodir qizi MAQSUD SHAYXZODANING MASHAQQATLI G'ALABASI	34 - 36
8	И.Ф.Рахимова ТОРТИНЧОҚЛИК ПЕДАГОГНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИГА НЕГАТИВ ТАЪСИР	37 - 40



	ЭТУВЧИ ОМИЛ СИФАТИДА	
9	Behruz Qo'ziboyev Bahodir o'g'li Dilnoza Qo'ziboyeva Bahodir qizi MAQSUD SHAYXZODAGA QO'YILGAN DASTLABKI AYVNOMA	41 - 43
10	Г.Ш.Вахидов НЕКОТОРЫЕ ПРИМЕНЕНИЯ ТЕОРЕМЫ ПИФАГОРА	44 - 46
11	Behruz Qo'ziboyev Bahodir o'g'li Dilnoza Qo'ziboyeva Bahodir qizi MAQSUD SHAYXZODANING SUD JARAYONI	47 - 49
12	М.Мирзайева НИКОИ SHARTNOMASI	50 - 53
13	Behruz Qo'ziboyev Bahodir o'g'li Dilnoza Qo'ziboyeva Bahodir qizi MAQSUD SHAYXZODANING BOLALIK YILLARI	54 - 58
14	Khilola Tuychiyeva Zokirjon qizi SPECIFIC CHARACTERISTICS AND STAGES OF CREATING MODERN ELECTRONIC EDUCATIONAL MATERIALS BASE OF BIOLOGICAL SCIENCE TEACHING	59 - 62



ESLATMA!

“SCIENCE SHINE” xalqaro ilmiy jurnaliga kiritilgan ma’lumotlar va dalillarni haqqoniy va keltirilgan iqtiboslarni to’g’riligi hamda aniqligi uchun shaxsan mualliflar javobgardirlar!

NOTE!

The authors are personally responsible for the truthfulness of the information and evidence included in the international scientific journal "SCIENCE SHINE" and the correctness and accuracy of the quotations!



International scientific journal
SCIENCE SHINE

Issue 10
30. 10. 2023

©Jurnal hajmi: 65 bet.

©Farg’ona viloyati, O‘zbekiston Respublikasi

©<http://science-shine.uz/>